Nodir TILAVOLDIYEV:

«PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARINING MODDIY TEXNIKALARI 15 YILDAN BERI YANGILANMAGAN»

3-sahifa

NEGA TIL HAQIDA KO'PROQ GAPIRA BOSHLADIK?

2s

O'ZBEKISTON CHORAK FINALDA

8-sahifa

milliy tiklanish

QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

№ 3 (1239) 2024-yil 31-yanvar, chorshanba Adadi – 5 036

1995-yil 19-iyundan chiqa boshlagan www.mt.uz \ milliytiklanish2022@mail.ru

YANGI O'ZBEKISTON BUYUK YO'LDA

yoki milliy manfaatlar chorrahasida o'z o'rnini topgan O'zbekiston va Xitoy hamkorligining tayanch nuqtasi to'g'risida

Keyingi yillarda dunyoda yuz berayotgan shiddatli o'zgarishlar, IT, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, inson kapitalini rivojlantirish bilan bog'liq yangilanishlar boshqa davlatlar qatori Yangi O'zbekiston oldiga ham yangidan-yangi vazifalarni qo'ymoqda.

◆ Tarixiy tashrif

Bu jarayonda ijtimoiy adolatga erishish, kambag'allikni qisqartirish, o'rta sinfni qo'llab-quvvatlash orqali tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga har qachongidan ustuvorroq ahamiyat berilyapti. Bu o'z-o'zidan rivojlangan davlatlar bilan o'zaro hamkorlikni yanada yaxshilash, bu yo'lda hali ishga solinmagan imkoniyatlardan samaraliroq foydalanishni taqozo etadi, albatta.

> **O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yangi yildagi ilk davlat tashrifi aynan ana shunday ko'rsatkichlari bilan dunyoni lol qoldirayotgan davlatga uyushtirildi.**

Ma'lumki, Xitoy 30 yildan buyon muntazam o'sib borayotgan, yalpi ichki mahsulot bo'yicha Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va Italiyadek davlatlarni ortda qoldirib, AQSHdan keyin ikkinchi o'ringa ko'tarilgan mamlakatga aylandi. 2000-yildan buyon Xitoyda YAIM hajmi 12 barobarga oshdi.

Xitoy IT, telekommunikatsiya, elektron tijorat sohalarida ham yuqori natijalarga erishmoqda. Masalan, ushbu mamlakat ma'lumotlar uzatish tezligi soniyasiga 1,2 terabit (1200 gigabit) bo'lgan eng tezkor Internetni ishga tushirdi. Bu sayyoradagi rekord ko'rsatkichdan 10 barobar tezroqdir.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yangi yildagi ilk davlat tashrifi aynan ana shunday ko'rsatkichlari bilan dunyoni lol qoldirayotgan davlatga uyushtirildi. Ya'ni, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga binoan 23 – 25-yanvar kunlari Davlatimiz rahbari ushbu mamlakatda bo'lib, o'zaro munosabatlarimiz tarixida butunlay yangi sahifa ochdi. Zero, millat yetakchisi ta'kidlaganlaridek, buyuk qadimiy sivilizatsiyalar har doim bir-biriga o'xshash, bir-birini tushunadi va ruhan yaqindir. Shu ma'noda, o'zbek va xitoy xalqlarining madaniyati va ideallari o'xshash. Haqiqatan ham, boy tarixiy merosga ega mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar bir necha ming yilliklarga borib taqaladi. Xalqlarimiz o'rtasidagi do'stona aloqalar Sharqu G'arbni bir necha asr davomida bog'lagan tarixiy Buyuk Ipak yo'li bilan chambarchas bog'liq. Xitoy markazidan boshlangan bu yo'l yurtimizning Samarqand, Buxoro va Termiz kabi qadimiy shaharlari osha dunyoning boshqa nuqtalariga ham ulangan. Tabiiyki, bu yo'l orqali nafaqat savdo-sotiq, balki gumanitar aloqalarimiz ham rivojlanib, madaniyatlar, an'ana va urf-odatlarimiz ham bir-birini boyitgan. Qayd etish joiz, dunyoda ziddiyatlar tobora chuqurlashib, xalqaro iqtisodiy tanglik murakkablashayotgan bir sharoitda O'zbekiston - Xitoy aloqalari ezgu niyatlar yo'lida rivojlanmoqda. Eng asosiysi, ekspertlar qayd etganidek, har ikkala mamlakatning o'zaro manfaatdorlik, tenglik va ochiqlikka asoslangan hamkorligini yuqori sur'atlar bilan rivojlanishi zamirida, avvalambor, ularning taraqqiyot prinsiplari va tashqi siyosat strategiyasidagi o'xshashlik, yaqinlik hamda maqsad-muddaolarning uyg'unligi mujassam.

Davomi 2-sahifada

> **Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida o'zbek xalqi Yangi O'zbekistonni barpo etish sari buyuk yo'lga tushib oldi.**

VAZIRLIK HAYOT-MAMOT MASALASIGA YETARLICHA E'TIBOR QARATMAYAPTI

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishi avvalida Prezident Shavkat Mirziyoyevning 23 – 25-yanvar kunlari Xitoy Xalq Respublikasiga uyushtirilgan davlat tashrifining ahamiyati atroflicha muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, O'zbekiston bugun Markaziy Osiyoda so'nggi o'n yilda eng yuqori rivojlanish ko'rsatkichlarini qayd etayotgan mamlakat sifatida taraqqiy etgan davlatlar bilan o'z manfaatlaridan kelib chiqib, hamkorlik aloqalarini kuchaytirmoqda. Xususan, dunyoning ikkinchi iqtisodiy qudratiga ega Xitoy bilan do'stona munosabati, ayniqsa, davlat rahbarlari o'rtasidagi ishonchli muloqotning yo'lga qo'yilgani O'zbekiston rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qayd etish joizki, ushbu tashrifda strategik sheriklikni yuqori cho'qqiga olib chiqish yuzasidan ko'plab kelishuvlarga erishildi. Jumladan, o'tgan yil yakuni bo'yicha 14 milliard dollarga yetgan tovar ayirboshlash hajmini yaqin istiqbolda 20 milliard dollarga yetkazish bo'yicha muhim hujjatlar imzolandi.

Ma'lumki, davlatlar taraqqiyotida yangi kadrlar avlodi muhim rol o'ynaydi. Xitoyda 15 yil oldin yangi pedagoglar korpusini yaratish bo'yicha juda katta dastur qabul qilingan va bu nafaqat ilm-fan, ta'lim-tarbiya yo'nalishida, balki boshqa tizimlarda ham salmoqli natijalarga olib keldi. Ayniqsa, Xitoy inson kapitaliga juda katta sarmoya yo'naltirgan davlat sifatida zamonaviy texnologiyalar rivojida katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda.

– Partiyamiz ta'lim-tarbiyani ustuvor masala sifatida ko'rar ekan, deputatlarimiz, ayniqsa, yoshlar O'zbekiston Prezidentining davlat tashrifini puxta o'rganib, xalqimizga uning mazmun-mohiyatini yetkazishlari lozim, – dedi fraksiya rahbari Alisher Qodirov.

Davomi 3-sahifada

72

kun yashagan Turkiston Muxtoriyati hukumati a'zosi, maorif vaziri Nosirxon To'raning bir necha bor qamoqqa olinishi va surgun qilinishi bilan bog'liq holatlarni bir esga olaylik! 1925-yili Nosirxon to'ra «sovetlarga qarshi siyosiy faoliyat olib borgani uchun» degan ayblov bilan (1928-yilgacha) Orenburgga surgun qilinadi, 1930-yilning 27-noyabrida esa davlat xavfsizligi maxsus organining qarori bilan otishga hukm qilinadi.

REJALI VAYRONKORLIK

7-sahifa

«MILLIY TIKLANISH»

KIM BO'LSANGIZ HAM DARSNI BUZMANG!

5s

UXLAMAYDIGAN DEPUTAT

4-sahifa

TARIXCHILARIMIZ BAHSLARGA TAYYOR EMAS(MI?)

...Ammo rus shovinizmining g'oyalarini fosh qilishga shu ikkita sifatsiz maqola ham yetarli edi...

7-sahifa

ANONSLAR

KIBER QARAQCHILAR «ov»ga chiqqanda...

6s

BEHBUDIY SAVOLIGA JAVOB BERISH VAQTI KELDI...

6s

2024-yilning 31-yanvar sanasidan. Manba: cbu.uz

✓ AQSH dollari 12430.05. ✓ 1 YEVRO 13458.02. ✓ 1 Rossiya rubli 139.18. ✓ 1 Angliya funt sterlingi 15762.55. ✓ 1 Yaponiya iyenasi 84.33.

ISSN 2010-7714

YANGI O‘ZBEKISTON BUYUK YO‘LDA

yoki milliy manfaatlar chorrahasida o‘z o‘rnini topgan O‘zbekiston va Xitoy hamkorligining tayanch nuqtasi to‘g‘risida

(Boshlanishi 1-sahifada)

Davlatlarimiz aloqalarida Buyuk Ipak yo‘lini qayta tiklash g‘oyasi taraqqiyot va farovonlikka xizmat qiluvchi inklyuziv va ochiq hamkorlik platformasiga aylangan bo‘lsa, zamonaviy ko‘rinishdagi «Bir makon, bir yo‘l» loyihasi nafaqat iqtisodiy, balki turizm, ta’lim va madaniy aloqalarni mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etayotir.
Buning isbotini 2023-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston-Xitoy o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi qariyb 53 foizga o‘sib, 14 milliard dollarga yetganida ham ko‘rish mumkin. Xalqaro ekspertlarning fikricha, yaqin istiqbolda bu ko‘rsatkichni 20 milliard dollarga yetkazish uchun barcha imkoniyatlar mavjud.
Yana bir raqam: keyingi yillarda yurtimiz iqtisodiyotiga kiritilayotgan Xitoy investitsiyalari hajmi besh, qo‘shma korxonalar soni esa uch barobarga ko‘paydi.

O‘zbekistonda ayni paytda xitoylik sarmoyadorlar ishtirokida 2337 ta korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. 2017 – 2023-yillar oralig‘ida o‘zlashtirilgan Xitoy investitsiyalari hajmi 14 milliard, jalb etilgan umumiy kreditlar esa 7 milliard dollardan ortdi.
Ikki davlat aloqalari madaniy hamkorlik, turizm, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari o‘rtasida sheriklik munosabatlarini ham yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilyapti.
Mintaqamizda birinchi bo‘lib 2005-yili Toshkentda, 2013-yilda esa Samarqandda Konfutsiy institutlari ish boshladi.
Xitoy hukumati homiyligida O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida xitoy tilini o‘qitish markazlari tashkil etildi. O‘z navbatida, 2010-yilda Xitoy Markaziy millatlar universitetida va 2012-yili Pekin chet tillar universitetida o‘zbek tili o‘qitila boshlandi. Xitoyning nufuzli o‘quv akademik muassasasi hisoblangan Shanxay xalqaro tadqiqotlar universitetida alohida o‘zbek tili kafedrasi ochildi.
2003-yilda Xitoyning Changchun shahrida Kamoliddin Behzod haykali, 2017-yilda esa Shanxay universitetida Alisher Navoiy haykali ochildi. Xitoyning 2013-yilda boshlangan Xivani arxeologik restavratsiya qilish loyihasi ham muvaffaqiyatli yakunlandi.
2017-yilda esa besh yilga mo‘ljallangan Turizm sohasida hamkorlikni rivojlantirish dasturi qabul qilindi. 2021-yil 1-martdan Xitoy fuqarolari uchun O‘zbekistonga kirgan kundan boshlab 10 kun muddatga vizasiz tartib o‘rnatilgani turizm sohasidagi sheriklikni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.
Agar Xitoyda 1,5 milliardga yaqin aholi istiqomat qilishini hisobga olsak, bu kelajakda mamlakatimizga keluvchi xitoylik sayyohlar oqimini oshirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilishi anglashiladi.
Ta’kidlash lozim, O‘zbekiston Prezidentining Xitoyga davlat tashrifi tom ma’noda tarixiy tashrif bo‘ldi. Pekin shahrida ikki davlat rahbarlari muzokarasi yakunida Qo‘shma bayonot qabul qilinib, ikki tomonlama hujjatlarning salmoqli to‘plami imzolandi.
Mamlakatimiz yetakchisining Xitoy innovatsiyalar poytaxti – Shenchjen shahrida Xitoy yirik biznesining 600 dan ziyod vakillari ishtirokida o‘tgan qo‘shma Investitsiya forumi, ayniqsa, samarali bo‘ldi.
Shu o‘rinda yana bir muhim jihatga to‘xtalsak: Xitoy o‘tgan yili birinchi marta Yaponiyani ortda qoldirib, dunyodagi eng yirik avtomobil eksportchisiga aylandi. Xitoyda ishlab chiqarilgan yengil avtomobillar eksporti rekord darajada 3,83 million donani tashkil etdi. Bu 2022-yilga nisbatan 62 foizga ko‘pdir. Global elektromobillar bozorida esa «BYD» kompaniyasi peshqadam bo‘ldi.
Davlatimiz rahbari o‘z tashrifi davomida ushbu kompaniya prezidenti Van Chuanfu bilan uchrashib, birga Jizzax viloyatida yiliga 50 ming dona gibrid va elektr avtomobillarni yig‘ish bo‘yicha loyihani ishga tushirishga bag‘ishlangan tantanali marosimda ishtirok etdi. Prezidentimiz yaqin istiqbolda bozordagi talabdan kelib chiqib modellar qatorini kengaytirish va ishlab chiqarish quvvatini yiliga 300 ming donagacha oshirish zarurligini ko‘rsatib o‘tdi.
Albatta, Xitoy ham Markaziy Osiyo markazida joylashgan O‘zbekiston bilan hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor. Mamlakatimiz o‘zining jug‘rofiy joylashuvi hamda siyosiy mavqei jihatidan Xitoy uchun eng qulay hamkor hisoblanadi. Xitoy mintaqamizni tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblar ekan, Markaziy Osiyoda O‘zbekiston ishtirokisiz bironta ham tashabbusni amalga oshirib bo‘lmasligini yaxshi anglaydi.
Xususan, Xitoy «Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston» temir yo‘li qurilishini tezlashtirishdan manfaatdor. «Yevroosiyo qit’a ko‘prigi» deya ta’kidlanayotgan ushbu loyiha Sharqiy Osiyodan Yaqin Sharq va Janubiy Yevropa mamlakatlariga bo‘lgan yo‘lni taxminan 900 kmga, yuk yetkazib berish muddatlarini esa 7-8 sutkaga kamaytiradi. Yuk tashish hajmi yiliga 12-15 million tonnani tashkil etadi. Shu bois, Xitoy O‘zbekistonni mintaqaviy integratsiyaning drayveri sifatida ko‘radi.
Si Szinpin yozganidek, «Xitoy va O‘zbekiston buyuk tamaddunga ega qadimiy davlatlar. Buyuk Ipak yo‘li xalqlarimizning 2000 yildan ziyod vaqt davomidagi do‘stona aloqalaridan darak beradi. O‘zbekiston - Markaziy Osiyoning qoq yuragida joylashgan yirik davlat. Alohida ta’kidlash kerak, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida o‘zbek xalqi Yangi O‘zbekistonni barpo etish sari buyuk yo‘lga tushib oldi. Turli sohalardagi islohotlar va taraqqiyot sur’ati jadal tus oldi. Mamlakat mutlaqo yangi qiyofaga ega bo‘ldi, munosib hayot sharoiti yaratilmoqda, respublikaning xalqaro maydondagi mavqeyi sezilarli ravishda mustahkamlandi. Samimiy do‘st va har tomonlama strategik hamkor sifatida muvaffaqiyatlaringiz bizni chin yurakdan quvontiradi».

Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish» muxbiri

> XITOYDA ISHLAB CHIQARILGAN YENGIL AVTOMOBILLAR EKSPORTI REKORD DARAJADA 3,83 MILLION DONANI TASHKIL ETDI. BU 2022-YILGA NISBATAN 62 FOIZGA KO‘PDIR. GLOBAL ELEKTROMOBILLAR BOZORIDA ESA “BYD” KOMPANIYASI PESHQADAM BO‘LDI.

✓ Bugunning gapi

Nega til haqida ko‘proq

Tan olaylik: faqat til bayrami yoki shu munosabat bilan qabul qilingan hujjatlar mohiyatiga munosabat bildirish, tilimizning qanchalar go‘zal va betakrorligi xususida uzundan-uzun chiqishlar qilish, TV, radio, gazeta-jurnallar, ijtimoiy tarmoqlarda o‘zimizni til posbonlari qilib ko‘rsatish odatlari eskirdi. Agar holat shu tarzda davom etaversa, tilimizning faqat to‘yu tantanalarda kiyiladigan libosdan farqi qolmaydi...

Bugun tilimizning qonun tiliga, fan va texnika tiliga aylanmayotgani, davlat tili sifatidagi maqomi esa asosan chiroyli yozuvlardagina mustahkamlab qo‘yilgani oqibatida u o‘z qadr-qimmatini yo‘qotib boryapti.

Ta’lim tizimida hatto bog‘chalarda boshqa tillarga ustuvorlik berilayotgani tabiiy ravishda davlat tiliga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiryapti. Afsuski, bu holat uzoq yillardan beri davom etmoqda.

Tilimizning qadr-qimmati haqida gap ketganda taniqli yozuvchi, dramaturg Sharof Boshbekovning «Qarg‘ish» nomli hikoyasi esimga tushaveradi:

«…V.I.Lenin nomidagi Xalqlar do‘stligi saroyida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi xodimlarining qurultoyi bo‘lyapti. Prezidiumda Moskovdan kelgan KPSS MKning qishloq xo‘jaligi bo‘yicha kotibi, Sharof Rashidov va hukumat a’zolari o‘tirishibdi. Bir payt ilg‘or sut sog‘uvchi opaga so‘z berishdi. Opa minbarga chiqib, «Assalomu alaykum...» deyishi bilan to‘rt yarim ming kishilik zal jimib qoldi. Shunaqa sukunat cho‘kdiki, pashsha uchsa eshitiladi. So‘ng birdan go‘yo bomba portlaganday norozilik hayqiriqlari, polni tepishlar, hushtaklar ovozidan zal larzaga keldi. Haligi opa, nimayam bo‘lib, o‘zbek tilida gapirib qo‘ydi-da! U paytlarda bu mutlaqo mumkin emas edi. Hatto O‘ZBEK tilida yozadigan, O‘ZBEK yozuvchilarining to‘rtta odam qatnashadigan yig‘ilishlari ham begona tilda olib borilar edi. Boyagi sut sog‘uvchi opa Rashidov tomon qaradi. U esa yerga qaradi. Shu payt Sharof otaning xayolidan nimalar o‘tdi, buni uning o‘zi-yu, yolg‘iz Xudo biladi. Opa Sharof otadan umidini uzib, yig‘laganicha minbardan tushib ketdi.

Ertasi kuni shu ko‘rsatuv takroran namoyish qilindi, ammo unda bu sahna qirqib tashlangan edi...

Men bir narsaga hayron bo‘laman: zaldagi hushtak chalib, polni tepkilaganlar o‘zimizning qorako‘zlar – dehqon, chorvador, mirishkorlar edi. O‘lsin agar, ularning birortasi rus tilida «tvaya-maya» qilib bo‘lsayam uch bahoga gapira olishsa! Bir g‘azabim qo‘ziydi, bir rahmim keladi. Bugun «O‘zbek tili haqida»gi qonunning yangi tahrirdagi loyihasini qabul qilmaganlar o‘shalarning farzandlari bo‘lsa, ne ajab! Yo minbardan yig‘lab tushib ketayotgan opaxonimiz «Bolangdan qaytsin» deb qarg‘aganmikan?..

Ha, chindan ham tilimizga bo‘lgan munosabat bu aslida millatga bo‘lgan munosabat ekani o‘shanda ham ma’lum edi. Ammo unda to‘lasincha «buyuk og‘a»mizning izmida edik, hatto allalarimiz ham «buyuk og‘a»lar tilida aytilar, kinolar avval shu tilda tasvirga olinib, keyin ona tilimizga o‘girilardi.

Ming shukurki, mustaqillik bizga til erkini ham qaytarib berdi. Ammo ko‘ngilchanligimiz, o‘zaro munosabatlarni har narsadan ustun qo‘yish odatimiz tufayli ona tilimiz go‘yo issiqxonada ulg‘aygan gul bargidek noziklashaverdi va...

Yangi O‘zbekiston islohotlarigina bizga tilimiz haqida, uning mavqei, muammolari haqida gapirish, muhokama qilish, eng muhimi, uning rivoji yo‘lida hayotiy qarorlar qabul qilish imkonini berdi.

– Biz millatchilik yoki millatlararo nizo qo‘zg‘ashdan yiroqmiz, – deydi «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi yetakchisi Alisher Qodirov til masalasiga munosabat bildirib. – Bugun global dunyodagi notinch holat fonida Markaziy Osiyoga nisbatan yuzaga keltirilayotgan tortishuvli vaziyatlar sobiq ittifoq davlatlariga nisbatan ilgari surilayotgan g‘arazli niyatning bir ko‘rinishi aslida. Shu kunlarda sobiq imperiyani tiklash haqida norasmiy doiralardan tashqari Rossiyaning rasmiy

> Bugun bog‘chalardagi oliy ma’lumotli 38 ming nafar tarbiyachining har biriga 75 nafardan bola to‘g‘ri kelyapti. Bu maktabgacha ta’lim tizimini boy beryapmiz deganidir.

milliy tiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
31-yanvar, 2024-yil
№3 (1235) chorshanba

(Boshlanishi 1-sahifada)

Vazirlik HAYOT-MAMOT MASALASIGA yetarlicha e’tibor qaratmayapti

Shundan so‘ng asosiy masala – «O‘zbekiston – 2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi Prezident Farmonining loyihasi muhokama qilindi.

Mazkur Farmon bilan «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida belgilangan keng ko‘lamli islohotlarni 2024-yilda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, «yashil iqtisodiyot» tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish hamda xalq manfaatlariga yo‘naltirilgan boshqaruvni yanada takomillashtirishga erishish belgilangan.

Loyihaga ko‘ra, 2024-yil 1-martdan boshlab «Yoshlar balansi» asosida alohida ishlash talab etiladigan, shuningdek, iste’dodli va iqtidorli yoshlar vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat ishtirokidagi korxona va tashkilotlar hamda oliy ta’lim muassasalari rahbarlariga biriktiriladi. Bunda mazkur rahbarlar har oyda kamida bir marotaba o‘zlariga biriktirilgan yoshlar bilan uchrashib, ularning muammolarini hal qilish, iste’dodini yuzaga chiqarish, ularni kasb-hunarga o‘qitish orqali bandligini ta’minlash, umuman, hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashadi.

Yoshlar salohiyati, iste’dodi va tashabbuslarini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish uchun «Besh tashabbus olimpiadasi» doirasida

1-martdan boshlab mahalla, ta’lim muassasalari, korxona va tashkilotlar tizimida mukofot jamg‘armasi 600 million so‘m miqdorida xorijiy tillar («Ibrat farzandlari») musobaqasi, kibersport va «Zakovat» intellektual o‘yinlari tashkil etiladi.

Shuningdek, loyihada «Yoshlar daftari» jamg‘armasi mablag‘laridan yoshlarni chet tillar va kasb-hunarga o‘qitishni yo‘lga qo‘yish, yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha maxsus «Ustoz» platformasini ishga tushirish va dastlabki bosqichda mazkur platforma orqali 150 ming nafar yoshlarni qamrab olish

> **2021-YILDA 227 MAROTABA SHUNDAY HOLAT QAYD ETILGAN BO‘LSA, 2022-YILDA QARIYB 3 000 TA VA 2023-YILDA ESA 7152 TA NARKOGRAFFITI CHIZISH HOLATLARI ANIQLANGAN. SHUNINGDEK, GIYOHVANDLIK VOSITALARINI O‘TKAZISH UCHUN MIJOZLAR TOPISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA INTERNETDAN FOYDALANISH KUN SAYIN ORTMOQDA.**

vazifalari belgilangan. Loyihada yosh xotin-qizlarni tadbirkorlik, marketing, grafik-dizayn kabi zamonaviy kasblarga o‘rgatish uchun «Qizlar akademiyasi» platformasini ham ishga tushirish nazarda tutilgan.

Deputatlar har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘nalishida 2024-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni sinchiklab tahlil qilib, ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha o‘z takliflari, fikr-mulohazalari va e’tirozlarini bildirdilar.

Jumladan, fraksiya a’zosi Nodir Tilavoldiyev loyihada belgilangan vazifalarni qo‘llab-quvvatlar ekan, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bir masalaga e’tibor qaratmayotganini ta’kidladi. Jumladan, uch bosqichdan iborat professional ta’lim – boshlang‘ich, kollejlardan iborat o‘rta ta’lim hamda oliy ta’limga biriktirilgan texnikumlar, jami 630 ta ta’lim muassasalaridagi sharoitlar afsuski abgor holatda.

– O‘rganishlarimizdan ma’lum bo‘ldiki, hududlardagi bunday muassasalarning moddiy texnikalari so‘nggi 15 yildan beri yangilanmagan. Ularda amaliy mashg‘ulotlarni o‘tishning hech qanday imkoniyati yo‘q, nazariya bilan esa maqsadimizga erisha olmaymiz, – dedi N.Tilavoldiyev va «O‘zbekiston – 2030» strategiyasining 2024-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlarida bu masalaga ko‘proq e’tibor qaratish lozimligini qayd etdi.

Alisher Qodirov ham deputatning fikrlarini ma’qullab, bugun maktabni, kollej, texnikumlarni tugatgan yoshlarning 85-90 foizi oliy ta’lim olishga intilayotgani ham aynan shu masala bilan bog‘liq ekanini ta’kidladi. Chunki yoshlarda muqobil yo‘l yo‘q. Aynan maktabda, professional ta’limda ularga hunar o‘rgatilmagan, qo‘shimcha malakalarga ega emas, monomarkazlarda esa imkoniyatlar cheklangan. Shu bois, yoshlarimiz bilimi yetsa-yetmasa o‘zini oliy ta’limga urmoqda.

– Partiyaning yangi Saylovoldi dasturida aynan ushbu masalalarga ham alohida e’tibor qaratiladi, – dedi fraksiya rahbari. Umida Rahmonova esa mamlakat taraqqiyoti kadrlar salohiyatiga bog‘liq ekanini, ularni tayyorlashni maktabgacha ta’limdan boshlash muhimligini qayd etib, bog‘chalarga oliy ma’lumotli tarbiyachilarni tayyorlash masalasini ko‘tardi. Uning aytishicha, «Milliy tiklanish» fraksiyasi a’zolari oldindan ham ushbu masalani ko‘tarib keladi, ammo tegishli vazirlik O‘zbekiston uchun hayot-mamot masalasi bo‘lgan ushbu muammoga hamon jiddiy e’tibor qaratmayapti. Uch bosqichli uzluksiz ta’limda poydevor to‘g‘ri qo‘yilmas ekan, keyingi bosqichlarda muammolarga duch kelaveramiz. Bugun bog‘chalardagi oliy ma’lumotli 38 ming nafar tarbiyachining har biriga 75 nafardan bola to‘g‘ri kelyapti. Bu maktabgacha ta’lim tizimini boy beryapmiz deganidir. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda 200 mingdan ortiq oliy ma’lumotli tarbiyachiga ehtiyoj bor.

«O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar, shuningdek, kuchli ta’sir qiluvchi va zaharli moddalarning qonunga xilof ravishda muomalasiga qarshi kurashishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi qonun loyihasi ham qizg‘in muhokama qilindi.

Bugungi kunda giyohvandlik vositalarini targ‘ib qiluvchi mahsulotni tarqatish va reklama qilishning yangi usullari paydo bo‘lib, aholi yashash joylari, ta’lim muassasalariga tutash bo‘lgan devor va yo‘laklarga «narkograffiti», ya’ni internet-do‘kon manzilining matni yoki grafikasini chizish yo‘li bilan uni targ‘ib qilish holatlari tobora ko‘paymoqda.

Misol uchun, 2021-yilda 227 marotaba shunday holat qayd etilgan bo‘lsa, 2022-yilda qariyb 3 000 ta va 2023-yilda esa 7152 ta narkograffiti chizish holatlari aniqlangan. Shuningdek, giyohvandlik vositalarini o‘tkazish uchun mijozlar topishda axborot texnologiyalari va Internetdan foydalanish kun sayin ortmoqda. Bundan ham yomoni giyohvandlik vositalarini o‘tkazishda voyaga yetmaganlardan foydalanilyapti. Mazkur holatlarning jamiyat uchun xavfliligi yuqori bo‘lsa-da, amaldagi qonunchilikda aybdorlarga nisbatan munosib ta’sir choralari belgilanmagan. Shu bois, qonun loyihasi bilan tegishli kodekslarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, ma’muriy javobgarlik, bir yil ichida takroran sodir etilganda esa qonun jinoiy javobgarlikni ko‘zda tutuvchi moddalar bilan to‘ldirilmoqda.

Deputatlar ushbu qonun loyihasi giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, kuchli ta’sir qiluvchi va zaharli moddalarni targ‘ib yoki reklama qilinishi yoxud noqonuniy muomalasining barvaqt oldini olishga xizmat qilishini e’tirof etgan holda, loyihani qo‘llab-quvvatladilar.

R.MAHMUDOV
tayyorladi.

gapira boshladik?

manbalarida ham bayonotlar berilmoqdaki, ularni tahlil qilsak, O‘zbekistondagi holat qanday, nimalarga e’tibor berishimiz kerak, degan haqli mulohazalar yuzaga keladi.

Shuni qayd etish joizki, bugun Yangi O‘zbekiston jamiyati o‘z qadriyatlari, davlatchiligi va o‘zligi nuqtayi nazaridan qat’iy bir pozitsiyaga ega. Shu o‘rinda rus millatiga mansub va boshqa yuzga yaqin o‘zga millatli vatandoshlarimizning qadriyati, milliy an’analarini saqlash esa Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilganini ta’kidlash joiz. Lekin til haqida gap ketganda boshqa masalalar yuzaga chiqadiki, bundan endi ko‘z yumib bo‘lmaydi. Masalan, O‘zbekistonda 4,5 foiz atrofida qozoq vatandoshlarimiz bor, rus vatandoshlarimiz esa 2-2,5 foizni tashkil qiladi. Lekin e’tibor bersangiz bugun maktab va bog‘chalarimizda rus tilida ta’lim berishga keragidan ortiq e’tibor qaratilyapti.

Zotan, til oddiy masala emas. Qaysiki, millat o‘z tiliga munosabatini o‘zgartirsa, tilidan uzoqlashsa, bunday millatlar yo‘q bo‘lib ketishi mumkinligi haqida tarixdan istagancha misol keltirish mumkin.

Uch ming yillik davlatchilik tariximiz haqida kuyunib gapirgan paytimizda o‘zbek tili qonun, texnologik rivojlanish tiliga aylana olmagani bizni xavotirga solishi kerak emasmi?

Ayni paytda ko‘plab ota-onalar farzandlarini rus tilidagi maktablarga beryapti. Ular bolam til bilsin degan ezgu maqsadda shunday yo‘l tutishyapti. Lekin bu davr bolaning asl poydevori

> **O‘ZBEKISTONDA 4,5 FOIZ ATROFIDA QOZOQ VATANDOSHLARIMIZ BOR, RUS VATANDOSHLARIMIZ ESA 2-2,5 FOIZNI TASHKIL QILADI. LEKIN E’TIBOR BERSANGIZ BUGUN MAKTAB VA BOG‘CHALARIMIZDA RUS TILIDA TA’LIM BERISHGA KERAGIDAN ORTIQ E’TIBOR QARATILYAPTI.**

tiklanadigan, ongi, qadriyatlari shakllanadigan davr hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaga o‘zligini bilish masalalari singdirilishi kerak. Yaponiya, Koreya, Xitoy kabi davlatlarda bolalarga ayni shu davrida milliy o‘zlikni anglash o‘rgatilishi ham shundan.

Yana bir masala: davlat tili haqidagi qonunimizga ko‘ra, fuqarolar o‘z murojaatlarini xohlagan tillarida bildirishlari mumkin. Ya’ni, fuqarolarning xohlagan tilda davlat idoralariga murojaat qilishlari belgilab qo‘yilgan. Ayni shu jihat davlat tilining rivojiga xalaqit berayotgan asosiy me’yorlardan biridir. Chunki tajribadan ma’lumki, har qanday tilning rivoji uchun unga birlamchi ehtiyoj paydo qilinishi kerak. Ehtiyoj bo‘lmagan til esa o‘z-o‘zidan zaiflashadi.

Bugun ta’lim tizimida, televideniye, hatto ayrim huquqiy hujjatlarda ham rus tilining ta’siri kuchli ekanini yaxshi bilamiz. Ma’lumotlarga qaraganda, Germaniyada nemis tilidan boshqa tilda davlat idoralariga murojaat qilish qonunga zid sanaladi. Agar boshqa tilda murojaat qilsangiz, u nafaqat ko‘rib chiqilmaydi, balki buning uchun jarimaga ham tortilasiz. Nazarimda, davlat tiliga munosabatni shunday shakllantirish orqali nemis tiliga bo‘lgan ehtiyoj yuzaga keltirilgan. Biz esa haligacha ana shu ehtiyojni paydo qilishga botinolmayapmiz.

Shuning uchun ham qonunlardagi til rivojiga to‘siq bo‘layotgan me’yorlarni o‘zgartirish va bu borada yanada kuchliroq me’yorlarni ishlab chiqish payti keldi deb hisoblayman.

Yaqinda shu haqda fikr bildirganimda rus segmentidagi axborot vositalari buni noto‘g‘ri talqin qildilar. Ya’ni, boshlang‘ich ta’lim ona tilida bo‘lishi kerak, degan gapimni o‘zbek tilida deb tarjima qilishdi. Men esa har qanday o‘zbek bolasi o‘zbek tilida, rus bolasi esa rus tilida boshlang‘ich ta’lim olsin, degan fikrni bildirganman.

Odatda birinchi sinfga borayotgan bolani qanday tilli maktabga berish ota-onalarning tanlovi, deyishadi. Ammo oramizda o‘z bolasining umuman maktabda o‘qishiga ham qarshi bo‘ladigan ota-onalar yo‘q deysizmi? Bor, albatta. Shuning uchun ham bola o‘zbek millatiga mansubmi, boshlang‘ich ta’limni ham o‘z ona tilida olishi kerak. Xorijiy tillarni o‘rganishni esa yuqori sinflardan boshlash maqsadga muvofiq.

Eng qizig‘i, ayni shu fikrim millatchilik deya talqin qilindi. Vaholanki, o‘zbek xalqi hech qachon millatchi bo‘lmagan. Shunday bo‘lganda edi Jahon urushi davrida bir to‘g‘ram nonini bo‘lib, ham rusga, ham nemisga bermagan bo‘lardi.

Ma’lumki, sobiq ittifoq davrida millatlar ustida juda ko‘p mafkuraviy tajribalar o‘tkazilgan. Afsuski, bunday tarbiyaviy ta’sirlar asorati hali ham yo‘qolib ketmadi. Ba’zi yurtdoshlarimizni bilaman, millati o‘zbek, lekin ona tilisini bilmaydi. Hatto o‘z bolasini rus bog‘chasiga, rus maktabiga berib, bolasi rus tilida gapirayotganidan g‘ururlanayotganlar bor. Bu bilan esa o‘zimizga ziyon qilayotganimizni anglamayapmiz. Shu haqda gapirsang, yoki til haqida, o‘zbek qadriyatlari haqida fikr bildirsang millatchilikka yo‘yishyapti.

Yodingizda bo‘lsa, Prezidentimiz elchilar bilan uchrashuvda o‘zbek tilini bilmagan diplomat qanday qilib O‘zbekiston vakili bo‘lishi mumkin, degan edilar. Xorijiy tilni o‘rganish mobaynida o‘z tilini unutib yuborgan shunday elchilar bor va afsuski, hozirgi maktab o‘quvchilarida ham shunday muammolar uchrayapti. Bizning til va vatanparvarlik borasidagi oqsashlarimizni ko‘rib, Markaziy Osiyodan haligacha umidini uzmagan ba’zi kuchlar bundan unumli foydalanishga harakat qilyapti.

Bas shunday ekan, ta’lim-tarbiya sohasida islohotlarni jadallashtirishimiz lozim. O‘zbek tili davlat tili ekan, davlat idoralariga murojaat, huquqiy hujjatlar, reklamalar, tashqi yozuvlar – umuman barchasida o‘zbek tili ustun bo‘lishiga erishishimiz lozim.

Chindan ham keyingi paytlarda rossiyalik ayrim siyosatdonlar tariximiz va hatto tilimizga nisbatan og‘riqli mulohazalar bildirmoqdalarki, bu aksariyat ziyolilarimizni junbushga keltirdi.

Ayniqsa, tariximizga otilgan toshlar zamirida boshqa o‘y, mulohazalar mavjudligi qayd etilib, anchadan beri alahsirayotgan tarixchilarga nisbatan keskin javoblar qaytarildi. Tobora avj olayotgan bunday munosabatlar esa kim aslida kim ekanini eslatish barobarida har birimizni hushyor bo‘lishga, jondan aziz yurtimiz, mustaqilligimizni ko‘z qorachig‘idek doimo asrash lozimligini anglatgandek bo‘ldi. Zotan, istiqlol bir marta qo‘lga kiritilib, qiyomatgacha himoya qilinadigan ne’mat ekanini yana bir bor his etgandek bo‘ldik.

Umid ARSLONBEKOV

milliy tiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
31-yanvar, 2024-yil
№3 (1235) chorshanba

> Yo'l qo'yilgan kamchilik va qonunbuzarliklarni ko'rganda qoni qaynab ketadigan va ular bartaraf etilguncha o'zini ham, o'zgani ham tinchitmaydigan bu odamni viloyatdagi ba'zi bir tepsa-tebranmas rahbarlarning ko'rishga ko'zi, otishga o'qi yo'qligiyam bor gap.

UXLAMAYDIGAN DEPUTAT

YOXUD MUROSASOZLIKDAN KO'RA MUROSASIZLIKNING AFZALLIGI HAQIDA

– Siz o'zingizdan lavozimi yuqori rahbarlar oldida qulluq qilib, tavoze bilan so'rashishni boplaysizu, lekin ishingizning sira tayini yo'q. Oqoltindagi perinatal markazning qurilish-ta'mirlash ishlari haligacha boshlanmadi. Bu borada sizga oldin ham aytgandim. Nima, sizga alohida deputatlik so'royi kerakmi? Yoki masalangizni xalq deputatlari viloyat Kengashiga qo'yib, sharmanda qilishlarini kutayapsizmi? Sal orqa-oldingizga qarab oling. Eski ko'priklar allaqachon yonib ketgan. Bir hafta muddatda Oqoltinda ta'mirlash ishlari boshlanmasa, masalangiz alohida ko'rib chiqiladi...

Bundan bir yilcha avval Soatovning ushbu gaplaridan so'ng viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi sobiq «kattakoni»ning tizzasidan mador ketdi va nimalarnidir ming'irlagandek bo'lib idorasiga yo'l oldi. Lekin ... lekin o'sha kuniyoq Oqoltin tumanidagi tug'ruqxonada zudlik bilan qurilish-ta'mirlash ishlarini boshlash haqida o'z o'rinbosarlariga topshiriq berdi.

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasining 11-Oqoltin saylov okrugidan viloyat kengashiga saylangan deputat Norbobo Soatovni ko'pchilik shartaki, el tili bilan aytganda «o'ta chars» odam deydi. Yo'l qo'yilgan kamchilik va qonunbuzarliklarni ko'rganda qoni qaynab ketadigan va ular bartaraf etilguncha o'zini ham, o'zgani ham tinchitmaydigan bu odamni viloyatdagi ba'zi bir tepsa-tebranmas rahbarlarning ko'rishga ko'zi, otishga o'qi yo'qligiyam bor gap.

– 2022-yilning 26-oktyabr kuni Prezidentimiz rahbarligida o'tkazilgan kengaytirilgan videoselektor yig'ilishida 14 ta tuman va shaharlardagi tug'ruqxonalarni tumanlararo va shaharlararo perinatal markazlarga aylantirish to'g'risida qaror qabul qilingan va bu borada 74-sonli yig'ilish bayonnomasi ham imzolangan edi. Unga ko'ra, Qoraqolpog'iston Respublikasi, 7 ta viloyat va Toshkent shahar hokimlari ushbu ishlar uchun mas'ul sanalib, zarur mablag' respublika va mahalliy byudjetdan ajratilishi belgilangandi. Jumladan, Sirdaryo viloyatining Oqoltin tumanidagi tug'ruq kompleksi ham 3 ta tumanga – Oqoltin, Mirzaobod va Sardoba tumanlaridagi 204 ming aholiga xizmat ko'rsatuvchi perinatal markazga aylantirilishi kerak edi.

Viloyatning o'sha paytdagi rahbari G'ofurjon Mirzayev bu xayrli ish uchun 865 mln. so'm mablag'ni ajratish to'g'risida, umuman, Prezident topshirig'i ijrosini ta'minlashni o'z o'rinbosari V.Ibodullayevga qat'iy tayinlaganidan keyin kerakli mablag' viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi hisob raqamiga o'tkazildi. Ammo negadir bu janoblar aravani ortga sudray boshlashdi. Shuning uchun ular bilan keskinroq gaplashishga to'g'ri keldi,– deydi Norbobo Soatov.

To'g'risi, oqsoqolni ancha yillardan buyon taniyman. Biroq... bu inson haqidagi bir savol doimo meni qiziqtiradi.

Shu odam ham uxlarmikan?! Agar boshqalarga o'xshab tin olish uchun yostiqqa bosh qo'ysa qachon uxlab qachon uyg'onarkin? Chunki uni muttasil ish ustida uchrataman. Juda bo'lmasa qo'ltig'ida bir dasta kitob bilan yoningizda paydo bo'lib qoladida, hozir sotib olingan yangi asarlar xususida so'zlay boshlaydi. Ha, darvoqe, uning kitobga o'chligiyam bor gap. Soatovning chin shogirdlaridan biri bo'lmish, hozirda viloyat hokimligida mas'ul lavozimda ishlovchi Sherzodjon Nurmatovning ta'kidlashicha, uning uyidagi shaxsiy kutubxonasida uch mingta o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalarining kitoblari saqlanar ekan.

– AQSHning sobiq prezidenti Barak Obama Oq uyda o'tirib, har kuni ikki soat vaqtini kitob o'qishga ajratar ekan. Butun davlatning tashvishi zimmasida bo'lsayam kitob, gazeta mutolaasiga vaqt toparkan. Bas, shunday ekan, o'qishimiz shart. Bu to'g'rida hech qanday izoh va uzrga hojat yo'q, deya ustoz bizlarni doimo o'qishga da'vat etadilar, – deydi Sherzodjon Nurmatov.

1959-yilning 11-dekabrida Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi o'sha mashhur Ommag'on qishlog'ida tavallud topgan Norbobo Soatov o'rta maktabni bitirgach, Toshkent Rus tili va adabiyoti oliygohiga o'qishga kirdi. 1981-yilda institutni muvaffaqiyatli bitirgach, yo'llanma bilan qo'riq Sirdaryo vohasiga ishga keldi va Oqoltin tumanidagi 1-sonli o'rta maktabda o'qituvchilik qila boshladi.

Yosh, serg'ayrat, mulohazali, lekin shu bilan birga o'ta haqiqatparvar bu mutaxassis tez orada o'zini ko'rsata bildi. Va... va tuman rahbarlarining nazariga tushdi.

Xullas, N.Soatov 1982-yildayoq tumandagi «Yosh kuch» ko'ngilli sport komiteti raisi o'rinbosarligiga, oradan bir yil o'tib Oqoltin tuman sport qo'mitasi raisligiga tayinlandi. Bu orada tumanda sportga bo'lgan e'tibor shunday rivojlandiki, viloyatning manaman degan mutaxassislari ham o'sha paytlarda tumanda erishilgan yutuqlarni haligacha og'zining tanobi qochib eslashadi. 1993-yildan 2006-yilgacha tumanda ma'sul lavozimlarda faoliyat yuritgan N.Soatovga yanada yuksak ishonch bildirildi. U xuddi shu yildan boshlab Respublika Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Sirdaryo viloyati filiali direktorligiga tayinlandi. Ushbu sohani yetti yil boshqargan paytlarda viloyatda bolalar sporti rivojlandi, asosiysi moddiy baza yaxshilandi. Ko'plab sport sohasidagi ta'lim-tarbiya maskanlari qurib foydalanishga topshirildi.

Ustoz yosh mutaxassislardan shogirdlar yetishtirdi. Hozirda viloyatning qaysi bir sport dargohiga bosh suqsangiz uning shogirdlaridan biriga duch kelasiz. Uning xayrli ishlari poytaxtdagi, «kattakonlar»ning ham nazariga tushib, uni 2013-yilda Toshkentga chorlashdi va Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar sportini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i lavozimiga tayinlashdi. Bir necha yillar bu vazifada sidqidildan ishlagan N.Soatov 2019-yilda yana Sirdaryoga qaytdi va shu yildan boshlab «Milliy tiklanish» partiyasining Sirdaryo viloyat Kengashi raisligiga saylandi.

Ha, darvoqe, qahramonimiz ikki chaqiriq – 2015- va 2019-yillarda xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatligiga saylangan.

– Otam Xoliyor Soatov, onam Sanam Meliyeva biz – to'qqiz nafar farzandga doimo bir gapni uqtirib kelganlar: Och bo'l, yupun bo'l, lekin adolatdan ayrilma. Haq gapni odamning yuziga ayt, aslo ortidan gapirma. Manfaat uchun imoningdan ayrilma. Agar shunday qilsang aslo sendan rozi emasmiz...

Oqoltin tumani «Yangi hayot» MFYda yashovchi Nodiraxon Isroilova ming bir umid va istihola bilan o'z deputati N.Soatovga murojaat qilib og'ir xastalikka chalinganligi bois, bir necha yildan buyon to'rt marotaba jarrohlik amaliyotini boshidan o'tkazganligi, hozirda ahvoli tobora og'irlashayotganligi sababli poytaxtdagi xususiy klinikalarda davolanishi lozimligi, lekin mablag'i yo'qligidan arz qildi. Murojaatchi bilan batafsil «dardlashgan» deputat o'sha kuniyoq «Mahalla» xayriya jamoat fondi viloyat bo'limi boshlig'i B.To'xtasinovga bor gapni tushuntirdiyu ertasi kuniyoq zarur mablag' bemorning bank plastik kartasiga o'tkazib berildi.

Mirzaobod tumanidagi Mirzo Ulug'bek MFY Rohat ko'chasi 84-uyda yashovchi Dildora Niyozova qaramog'ida ikki nafar farzandi borliginiyu, boquvchisi yo'qligi, doimiy ish joyiga ega emasligini, boz ustiga qariyb o'n yildan buyon ijarada yashab kelishayotganligi bois uy-joy bilan ta'minlanishda amaliy yordam so'radi.

Murojaatchining yashab turgan manziliga «qadam ranjida» qilgan deputat uning sharoiti bilan to'liq tanishib chiqdi va viloyat hokimining o'rinbosari Nargiza Tojiboyevaga deputatlik so'rovi yo'lladi. Natijada Dildora Niyozova Guliston shahridagi to'qimachilik korxonasiga ishga joylashtirildi va «Ayollar daftari»ga kiritilib, subsidiya asosida kam ta'minlangan, boquvchisi yo'q oilalarga ajratiladigan uylardan birini olish uchun ro'yxatga qo'yildi.

Oqoltin tumani «Ko'rkam Diyor» MFY E'zoz ko'chasi 9-uyda yashovchi, 1-guruh nogironi G'ofur Adilov deputatga murojaat qilib, muttasil davolanishga mablag'i yetarli emasligi bois davlat tomonidan beriladigan bepul dori-darmon bilan ta'minlanishida amaliy yordam so'radi. O'z navbatida tumandagi soha mutasaddilari bilan telefonda «qattiqroq ohangda gaplashgan» deputatning sa'yi-harakatidan so'ng tuman tibbiyot birlashmasining bosh shifokori qo'li ko'ksida bemor oldida dori-darmon bilan hozir – nozir bo'ldi.

Ayni kunlarda Mirzaobod tumanida yashovchi keksa o'qituvchi Mamarajab Hazratqulov o'ta ko'tarinki kayfiyatda yuribdi. Chunki uning suyukli nabirasi, tumandagi 30-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi Parvina Zohirovaning ilk she'riy to'plami nashrdan chiqdi. Bunga esa Norbobo Soatovning Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i M.Sirojiddinovga birgina qo'ng'irog'i kifoya qildi. Ana shu quling o'rgilsin qo'ng'iroqdan so'ng yosh shoira va uning bobosi M.Hazratqulovlarning kitob chop ettirish uchun mablag' izlab ikki yillik yelib yugurishlariga batamom chek qo'yildi.

Bular 11-Oqoltin saylov okrugidan viloyat kengashiga saylangan deputat N.Soatovning kamtarona xizmatlarining bir shingili, xolos. Agar deputatning birgina 2023-yilda amalga oshirgan ishlarini to'liq bayon etsak bizningcha bir kitobga «yuk» bo'lar...

Biz yuqorida Norbobo Soatovni kitobga juda o'ch shaxs deya ta'riflagandik. Suhbat chog'ida u bir mulohazani bildirib qoldiki, buni-da qog'ozga tushirishga jazm etdik.

– Ma'lumki, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o'zining «Adabiyot» nashriyotida shoir va yozuvchilarning asarlarini katta-katta nusxalarda chop etib ta'lim muassasalariga tekin tarqatyapti. Bu juda yaxshi albatta. Galdagi vazifa menimcha bu savobli ishni mahalla va oilalarga ham ko'chirmoq kerak... «Adabiyot» nashriyoti faqat ta'lim muassasalarining nashriga aylanib qolmasligi lozim. Bilasizmi, zo'r kitoblarni nashr qilishadi, lekin erkin savdoga deyarli chiqarishmaydi. Shuning uchun uning mahsulotlaridan MFY kutubxonalarini va oilalarni ham bahramand etish zarur. Men bir fikrda doimo sobitman. Uyda kitob bo'lsa, albatta o'qiladi. Qolaversa, o'zbek millati kitobni hech qachon javonlarda chang bostirib qo'yadigan xalq emas!

Abdug'affor OMONBOYEV,
«Milliy tiklanish» muxbiri

✓ Ma`naviyat

MA'NAN QUDRATLI DAVLATNING ISTIQBOL YO'LI

Firuza MUXITDINOVA,
TDYU professori

Azaliy qadriyatlar va ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz berayotgan bir paytda qayta-qayta ma'naviyatga murojaat qilinayotgani bejiz emas.

Prezidentimizning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining 22-dekabrdagi yig'ilishida aytgan «Ilgari o'z maqsad va manfaatlarini asosan diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o'tkazish, qarama-qarshilik va to'qnashuvlar yo'liga o'tganiga hammamiz guvohmiz. Afsuski, bunday keng ko'lamli va o'ta ziddiyatli jarayonlarning ta'siri Markaziy Osiyo mintaqasi va uning tarkibiy qismi bo'lgan mamlakatimizni ham chetlab o'tmayapti», – degan fikr esa barchamizni buyuk ajdodlarimiz haqida yosh avlodga yanada kengroq ma'lumot berishga, o'zbek xalqining oliyjanoblik xislatlarini badiiy ijod namunalarida, ma'rifiy tadbirlarda mukammalroq jonlantirish lozimligini ko'rsatadi, albatta.

Tasavvur qiling: buyuk mutafakkirlarimiz Abu Nasr Forobiy qarashlarida fozil inson, fozil shahar aholisi ta'riflangan bo'lsa, qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino asarlarida oiladan boshlangan axloq pirovardida ma'rifatli davlatga yetaklashi ilgari surilgan, Abu Rayhon Beruniy esa har qanday jinoyat va jaholat ilmsizlikning oqibati ekanini ta'kidlagan. Garchi buyuk ma'naviy merosga ega bo'lsagu, lekin undan foydalanmasak, atrofimizda turli yot g'oyalar bilan jaholatni targ'ib etguvchilar ko'payaveradi. Shunday ekan, ijtimoiy tarmoqlarda ham, barcha chiqishlaru, maqolalarda ham, bolajonlar uchun yaratiladigan adabiyotlarda ham asl boyliklarimizni, xususan, To'marisu, Shiroqdan tortib, jadid ma'rifatparvarlarimiz hayotini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

> Buyuk mutafakkirlarimiz Abu Nasr Forobiy qarashlarida fozil inson, fozil shahar aholisi ta'riflangan bo'lsa, qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino asarlarida oiladan boshlangan axloq pirovardida ma'rifatli davlatga yetaklashi ilgari surilgan, Abu Rayhon Beruniy esa har qanday jinoyat va jaholat ilmsizlikning oqibati ekanini ta'kidlagan.

Ma'lumki, Mahmudxo'ja Behbudiy o'z maslakdoshlari singari millatning siyosiy ongi va tafakkurini o'stirishning asosiy yo'llari sifatida yangi usuldagi maktablar ochish va bu maktablar uchun darsliklar yaratish, matbuotni yo'lga qo'yish va shu orqali o'zbek milliy tilini shakllantirish, adabiy til me'yorlarini yaratish ishlariga ulkan hissa qo'shdi. Lekin, buyuk millatparvar bobomiz orzu qilgan maktablar endi yaratilayotir.

Lekin Behbudiy «Til masalasi» maqolasida davrning eng dolzarb masalasiga adabiy tilni shakllantirish va taraqqiy ettirishni bejiz qo'ymagan ekan. Behbudiy kundalik matbuot nashrlari chop etilib, xalq orasida keng ommalashgan joyda adabiy til normalari ma'lum me'yorga kirayotganini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, matbuot tilining rivoji xalq jonli tilidan ustun darajada ekanini uqtirib o'tadi. Bu masala ham davlatimiz rahbari tomonidan ko'tarildi va hatto o'zbek tili darslari, muallimlar uchun soatlar ajratilishi, ustamalar belgilanishi qayd etildi.

Kengash yig'ilishida shuningdek, o'zbek tili – davlat tili maqomiga ega bo'lsa-da, bugun katta e'tibor xorijiy tillarga berilayotgani haqida ham fikr bildirildi. Yig'ilishda Davlatimiz rahbari o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchilariga ham xalqaro sertifikatga ega bo'lgan, boshqa fan o'qituvchilaridan kam bo'lmagan miqdorda qo'shimcha haq to'lanishi adolatdan bo'lishini qayd etarkan, yoshlarimiz uchun yana bir yangilik sifatida, o'zbek tili bo'yicha xalqaro fan olimpiadasi o'tkazilishi, g'olib va sovrindorlar pul mukofoti bilan taqdirlanishi hamda oliygohlarga o'zbek tili filologiyasi yo'nalishi bo'yicha davlat granti asosida o'qishga qabul qilinishini bildirdilar. Shuningdek, 2024-yili O'zbekistonda Xalqaro bolalar adabiyoti ko'rgazmasi tashkil etilishi, bu ishda faol tarjimonlar uchun Ogahiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'sis etilishi ma'lum qilindi.

Ko'pchilikning yodida bo'lsa kerak – «Sadoyi Turkiston» gazetasida Behbudiy til borasidagi maqolalarni tahlil qilar ekan, gazetaning bu harakatiga «ijrosi mumkin emas orzu» deb qaraydi. Sabab, asrlar davomida arab va fors tili ta'sirida qolgan turkiy tilni «yana bir necha ming sanada bularni ta'siridan chiqarmoq» ishiga berilsak, «ma'nan va moddatan va fannan mahkum millatlarni(ng) tili (qatorida) bo'lgan tilimizg'a yana taraqqiy etgan millatlarni(ng)» tilidan yangi so'zlar kirib kelaveradi. Demak, Behbudiy tilni soflashtirish masalasiga eng muhim masala sifatida qaragan.

KIM BO'LSANGIZ

HAM DARSNI BUZMANG!

AQSH Prezidenti Jon Adams o'z paytida: «Farzandlarim matematika va falsafani o'rganishlari uchun men siyosat va urushni o'rganishim lozim», degan ekan. Balki mubolag'a qilayotgandirman, ammo rosti bugunga kelib maktab darsliklari murakkablashib ketdi. Ayniqsa, matematika.

Ota-onalar telegram guruhida o'qituvchisi har kuni yozadi: «ota-onalar iltimos, bolangiz bilan birga dars qiling». Juda o'rinli talab. Ammo shundan keyin hammasi boshlanadi: «ustoz, 4-masalani tushunmayapmiz», «jadvalni qanday to'ldirishni bilmayapmiz...». Kulguli bo'lsa-da, aytaman o'qituvchi har kuni darsdan keyin ota-onalargayam erinmay dars o'tayapti: «bunday bo'ladi», «bunaqa yozasiz», «nuqtalar o'rniga bo'yoqli ijobiy so'zlarni qo'yasiz». Xullas, zamonaviy darsliklar o'qituvchining vaqti va asablarini qaqshatib, biz ota-onalarni ham toblayapti.

Lekin gap bu haqda emas. Gap maktablardagi ayrim mantiqsizliklar haqida. Sinfxona eshigiga «dars muqaddas – uni buzmang» deb yozib qo'yilganu, direktor istagan vaqtda darsni bo'lib, o'qituvchini huzuriga chaqiraverishi mumkin. Yoki o'quvchilar, ota-onalar ham hech bir istiholasiz «muqaddas dars»ni buzish «huquqi»dan foydalanishadi. Shundan keyin o'quvchi mavzuni chala-yarim tushunib, uyga keladi...

Hadislarda ilm olmoq ham ibodatga tenglashtiriladi. Shunday ekan, namoz o'qiyotgan kishiga halal berish gunoh ekanini bilamizu, nega ilm olayotgan o'quvchilar ibodatini buzamiz?

Manbalarda qayd etilishicha, Abdurauf Fitrat o'zi tashkil etgan «Tong» jurnaliga «Miya o'zgarmaguncha boshqa o'zgarishlar negiz tutmas» shiorini tanlagan ekan.

Davlatimiz rahbarining 2023-yilning 28-avgustida maktablarda ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi o'rnini ko'paytirish va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ustuvor vazifalar yuzasidan bo'lib o'tgan videoselektorda pedagoglarga qarata: «O'zgarmasangiz xayrlashamiz» deganlari yodingizdami? Bundan anchagina hushyor tortgan tizim mutasaddilari o'qituvchini aksariyat yumushlardan xalos etdilar. To'g'risi ham shuda, o'qituvchi dars o'tsinmi, ko'cha tozalasinmi. Yoki uyma-uy yurib kommunal to'lovlar, soliq qarzdorligini undirsinmi? Shukurki, bular bartaraf etilyapti, ammo afsuski, yangilarini «yaratyapmiz». «Milliy tiklanish» partiyasi yetakchisi Alisher Qodirov ta'kidlaganidek: «O'qituvchi o'z ishini zavq bilan, sevib bajarsin, og'ir mehnati har tomonlama qadr topayotganini his qilsin. Dars mavzusi bo'yicha dunyoda bir soat avval qanday yangiliklar yuz bergan bo'lsa, shuni ham biladigan darajada faol bo'lsin. Buning uchun esa maktab ma'muriyati o'qituvchiga zamonaviy vositalar va shinam muhit yaratib berish haqida o'ylashi kerak. O'qituvchi darsini berib bo'ldimi, xohlasa kutubxonaga, xohlasa uyiga ketsin. Qayer uning uchun qulay bo'lsa, o'sha yerda oilasi, ishi, o'quvchilari haqida o'ylasin, o'tgan darslari uchun hisobot to'ldirish haqida emas!».

Bundan o'n yilcha avval YUNISEF niderland maktab ta'limini bosimdan holi ta'lim, niderlandiyalik bolalarni esa Yer yuzidagi eng baxtli bolalar deb atagan edi. Qayd etilishicha, bu mamlakatda bolalar 4 yoshdan maktabga boradi, 10 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarga uy vazifalari berilmas ekan. Yana bir manbada Finlandiyada o'qituvchi har bir o'quvchini qobiliyati va darsni o'zlashtirishiga qarab vazifa berarkan. Maktablarning hududi to'silmagan, kirish joyida xavfsizlik tizimi bo'lmasligi mumkin, ammo asosiy kirish eshigi elektron qulflanadi. Bu siz binoga faqat jadvalga muvofiq kirasiz degani. Singapurda esa o'quvchilarning qaysi ta'lim muassasasida o'qishida ularning kelib chiqishi yoki moddiy imkoniyati emas, qobiliyati va intilishi hisobga olinishi aytiladi. Maktabning boshlang'ich sinfidagi mashg'ulotlarda asosiy e'tibor xorijiy tillar va aniq fanlar o'qitilishiga qaratiladi. Daniyada o'quvchilarining 86 foizi davlat maktabi, 14 foizi xususiy maktablarda o'qishidan ham taxminiy xulosa qilish mumkinki, darslar erkin o'tilsa-da, hech kim eshikni ochib bemalol darsni buzmaydi.

Xitoydaku deyarli barcha maktablarning hududi katta temir darvozalar bilan o'ralgan bo'lib, faqat bolalarning darsi tugaganidagina ochilarkan. Bola xoh davlat, xoh xususiy ta'limda yoki kun-fu maktabida tahsil olmasin uchta asosiy sifatni o'zlashtirishga harakat qilishadi: mehnat qila olish, tartibga rioya qilishi va yoshi katta insonlarga hurmatda bo'lish. To'g'ri, ta'lim tizimida katta-katta muammolari bor davlatlar ham yo'q emas, ammo ularda ham tashqi ta'sir sabab darsdagi o'quvchining diqqatini chalg'itishga yo'l qo'yilmaydi.

Nima deb o'ylaysiz, maktab ta'lim tizimidagi muammolarimiz qatoriga «darsni buzishni to'xtatish», dars muqaddasligini ta'minlashni ham kiritsak o'rinlimi?

Mahbuba KARIMOVA,
jurnalist

✓ Tahlil

FAOLLAR OLDINGA,

MAS'ULIYATSIZLAR ESA...

2023-yil voqealari butun sayyora aholisiga befarqlik va ma'naviyatsizlikning oqibati qanchalar qimmatga tushishi mumkinligini ko'rsatdi. Shu o'rinda Davlatimiz rahbarining «Xalqimizning bizga bildirgan yuksak ishonchi barchamizdan – deputat va senatorlar, vazir va hokimlar, davlat va nodavlat tashkilotlari rahbarlaridan, har bir yurtdoshimizdan belimizni yanada mahkam bog'lab, avvalgidan ikki-uch karra ko'proq g'ayrat va shijoat bilan ishlashni talab etadi.

Shu ma'noda, oldimizda turgan davr O'zbekiston uchun siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar sohalarda tub burilish va ulkan o'zgarishlar davri bo'ladi. Yangi davr uchun yangi g'oya va tashabbuslar kerak, yangi natijalar kerak. Shundagina u tom ma'noda yangi davr bo'ladi. Kechagi natija, kechagi qarash va mezonlar endi tarix. Ular endi bizni qoniqtirmaydi. Davrning o'zi barchamizni tezkor bo'lishga, kerak bo'lsa, vaqtdan o'zib ishlashga undamoqda» degan fikrlarini yana bir bor eslash o'rinlidek.

To'g'ri, 2023-yilda aksariyat xalq deputatlari mahalliy Kengashlari samarali faoliyat olib bordi. Xususan, yanvar-dekabr oylarida partiya guruhlari tomonidan hududlarda aniqlangan, saylovchilarni o'ylantirayotgan tizimli muammo va kamchiliklarni hal etish, yetakchi soha hamda tizimlarda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, joylarda qonunlar va davlat dasturlarining ijrosini ta'minlash yuzasidan kengash sessiyalariga 748 ta (2022-yilning mos davridagi ko'rsatkichdan 10 taga ko'p) masala-takliflar kiritilgan bo'lsa, Doimiy komissiyalar yig'ilishlariga olib chiqilgan masala-takliflar soni 1318 taga (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 taga ko'p) yetdi. Tashabbus huquqi asosida 1485 nafar mansabdor shaxsning axborot va hisobotlari (o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 110 taga kam) eshitildi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga jami 5643 ta deputatlik so'rovlari yuborilgan bo'lsa, shundan 1215 tasi qonun va hukumat qarorlari ijrosi bo'yicha, 4428 tasi fuqarolar murojaatlari asosida yuborildi. Mazkur so'rovlarning 4899 tasi (86,8%) ijobiy hal qilingan, 652 tasida (11,5%) ko'rsatib o'tilgan masalalarni hal etish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, 173 ta (3%) deputatlik so'roviga so'rov yuborilgan tashkilotlar yoki mutasaddi shaxslar tomonidan javob belgilangan muddatidan kechiktirib qaytarilgan.

Yuborilgan 5643 ta deputatlik so'rovlaridan 889 tasi gaz, suv, elektr energiya muammolari, 579 tasi yo'l ta'mirlash masalalari, 518 tasi aholi bandligini ta'minlash, 599 tasi sog'liqni saqlash, 406 tasi ta'lim, 357 tasi tadbirkorlikni rivojlantirish, 665 tasi kommunal, 140 tasi turizm hamda 108 tasi jismoniy tarbiya va sport sohasiga taalluqlidir.

O'tgan yili partiya guruhlari a'zolari mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotiga bevosita daxldor bo'lgan dolzarb jarayonlar yuzasidan televideniye va radioda 2145 marta, bosma OAVda 1757 marta hamda elektron ommaviy axborot vositalarida 24741 marta chiqishlar qildi.

Xalq deputatlari Navbahor tuman Kengashidagi partiya guruhi misolida ko'rish mumkinki, 2023-yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida guruh a'zolari tashabbusi bilan xalq deputatlari tegishli tuman Kengashi sessiyalariga 14 ta masala kiritilgan. Doimiy komissiyalar yig'ilishlariga 32 ta masala-takliflar olib chiqilib, 23 nafar mansabdor shaxsning hisobotlari eshitilgan. Shuningdek, tegishli tashkilotlar va mutasaddilarga yo'naltirilgan jami 108 ta deputat so'rovlarining 29 tasi qonunlar va hukumat qarorlari ijrosi bo'yicha, 79 tasi fuqarolar murojaatlari asosida yuborilgan. Qonunlar ijrosi bo'yicha hamda partiya Dasturidagi vazifalar ijrosi yuzasidan guruh tomonidan 8 marta o'rganishlar tashkil etilgan, fuqarolar murojaatlari asosida ko'tarilgan 82 ta muammoning 71 tasi ijobiy hal etilgan. Partiya guruhi yig'ilishlari soni 16 tani, guruh a'zolarining OAVda chiqishlari esa 441 ta (televideniyeda 28 marta, bosma nashrlarda 61 marta va ijtimoiy tarmoqlarda 352 marta)ni tashkil etgan. Samarali faoliyat olib borgan partiya guruhlari sifatida Shirin va Farg'ona shahar Kengashlaridagi hamda Jalaquduq, Vobkent, Do'stlik, Qamashi, Namangan, Qattaqo'rg'on, Bo'stonliq, Mirzo Ulug'bek, Uchtepa, Urganch va Xazorasp tuman kengashlaridagi partiya guruhlarini ham tilga olish mumkin.

Ammo, afsuski yuqoridagi faol partiya guruhlarining natijadorligi «soyasi»da Boysun, Forish, Muborak, Zangiota, Uchqo'rg'on, Jomboy, Xatirchi, To'rtko'l, Sirdaryo tuman Kengashlaridagi hamda Quvasoy, Nurafshon va Angren shahar Kengashlaridagi partiya guruhlari o'z vakolatlaridan yetarlicha foydalanishmagan. Kengash sessiyalari va doimiy komissiyalar yig'ilishiga masala-takliflar kiritish, sayyor qabullar va o'rganishlar tashkil etish, aholi murojaatlari bilan ishlash, jamoatchilik nazoratini olib borish, Saylovoldi Dasturimizdagi vazifalar ijrosini ta'minlashda ham qoniqarsiz faoliyat olib borishgan.

Alohida ta'kidlash kerakki, 2023-yildagi faoliyat tahliliga ko'ra, 50 nafarga yaqin deputatlar mas'uliyati, faolligi va jonkuyarligi uchun rag'batlantirildi.

Abu Muslim USMANOV,
partiya Markaziy kengashi bo'lim boshlig'i

✓ Kuting!

milliy tiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
31-yanvar, 2024-yil
№3 (1235) chorshanba

НИМА ЭМИШ, ЁШЛАР ТЎЙГА ЎЙНАГАНИ КЕЛГАНМИШ... ҲАММА НАРСА ЁШЛАРБОП БЎЛСА, ЎРТА ЁШ ВА ҚАРИЯЛАР НИМА ҚИЛЯПТИ ТЎЙДА? ДЕМОҚЧИМАНКИ, ТЎЙ ЭГАЛАРИ ФАҚАТ ДАСТУРХОННИ «ДАҲШАТ» ҚИЛИШ БИЛАН ЭМАС, НАВБАТЧИ САНЬАТКОРЛАРНИНГ РЕПЕРТУАРИ БИЛАН ҲАМ ҚИЗИҚИБ КЎРИШЛАРИ КЕРАК.

ОГРИҚЛИ НУҚТА

КИБЕР ҚАРОҚЧИЛАР

«ов»га чиққанда...

Ёхуд миллий қонунчилигимизда «доксинг»дан ҳимояланиш кафолатланган

Бугунга келиб киберзўравонлик ва интернет билан боғлиқ фирибгарликларнинг кўпайиб бораётгани истеъмолимизга «доксинг» атамасини олиб кирди. «Доксинг» бу одамларнинг розилигисиз уларга қарши қаратилган тажовузкор ҳаракатдир. Бу термин 90-йилларда пайдо бўлиб, асосан хакерлар фаолиятида ишлатилган. Бугун эса унинг аудиторияси анчайин кенгайди.

Одатда «доксинг»да маълум бир шахс ҳақидаги маълумотлар топилади ва рухсатсиз тарқатилади. Энг ёмони, бу усулдан ғараз мақсадлар билан ижтимоий тармоқдан фойдаланаётганлар, айникса, ўзбошимчалик ва маънавий бузуқликни тарғиб қилаётганлар сони ортиб бораётир...

Тўғри, шахсий маълумотлар эгасининг рухсатисиз ошкор қилиниши олдинлари ҳам содир бўлган. Аммо у даврда маълумотларнинг таркалиш кўлами глобал тармоқ каби кенг эмас эди.

Статистикага кўра, 2021 йилда Россия фукароларининг 18 фоизи онлайн танишувлар сайти оркали «доксинг» курбони бўлган. Табиийки, бу кўрсаткич кибер жиноятчилик авж олиши фонида янада ошди. «Доксинг»га учраган фукароларнинг айтишича, улар шантаж, шахсий маълумотлар ва шахсий фотосуратларни эълон килиш тахдидларига учрашган. Жахонда хар ой биргина Facebookда 3 миллиардга якин фотосуратлар жойлаштирилишининг ўзи фойдаланувчиларнинг «доксинг» тахдидлари билан ёнма-ён яшаётганига ишора. Хўш, Ўзбекистонда хам бундан азият чекаётганлар борми? Албатта, бор. Айрим холатларда менталитетимизга хос андиша, уят сабаб «доксинг» курбони бўлганлар ушбу холатни яшириб, хукук-тартибот органларига мурожаат килмайдилар. Лекин «доксинг»дан азият чеккан инсон ўз вактида орган ходимларига мурожаат килса, албатта, хукукий ҳимояланади, кибер «ов»чилар аникланиб, уларга нисбатан конуний чора кўрилади. Шу ўринда айтиш керакки, «доксинг»чиларнинг максади можарони интернетдан ҳакикий дунёга ўтказиш бўлиб, улар «ўлжа»га карашли барча маълумотларни, жумладан, фотосуратларгача эълон киладилар. «Доксинг» билан шуғулланувчилар ижтимоий тармоқларда жуда фаол шахсларни ўзларига «ўлжа» қилиб танлашади. «Ўлжа»сининг шахсий ҳаётини бузиш ва обрўсизлантириш орқали қандайдир «даромад» топиш уларнинг олий мақсади...

Хўш, бундан қандай ҳимояланиш керак? Биз ижтимоий тармокларда фаолмизми, демак сахифаларимизда жуда кўп шахсий сурат ва маълумотларимиз бўлади. Бу эса «доксинг»ни амалга оширувчи шахс учун кулай имконият.

Бугун «оммалашаётган» усуллардан энг долзарби ҳам – бу ижтимоий тармоклардаги таъқиблар хисобланади. Шахснинг ижтимоий тармоклардаги аккаунтлари барча учун очик бўлиши бошқаларга унга нисбатан кибер терговни бошлаш имкониятини яратади. Эътибор берсангиз, бугун инсон шахси ва шаънига қасд қилувчи жиноий ҳаракатлар кўпаймоқда. Жумладан, «порно-қасос» жабрланувчисини унинг шахсий интим муносабатлари натижасида ёки ноконуний равишда кўлга киритилган яширин фотосуратлари, видеолари, ёзишмаларини таркатиш тахдиди билан кўркитиш ёки амалда таркатишдир. Оилаларда рўй бераётган зўравонликларни ҳам фото-видео тасвирлар оркали таркатиш «доксинг»нинг бир кўринишидир. Бунда топилган маълумотлардан тахдид сифатида фойдаланиш мумкин, масалан, рақибнинг келишмовчилигига жавобан турли хабарлар юбориб маълумотларини ошкор этиш билан кўркитиш. Буни қарангки, «доксинг» маълумот вақтинчалик ошкор килинмаслиги ҳам мумкин. Масалан, кибер қарокчи шу йўл билан жабрланувчини кўркитиб ёки таъкиб килиб ундан фойдалана бошлайди. Бу эса «доксинг» курбонининг эмоционал ва руҳий, иктисодий, ижтимоий фаолиятига ҳатто, соғлиғини йўкотишга олиб келади.

Хулоса ўрнида айтиш жоизки, бугун «доксинг» – рақамли зўравонлик сифатида шунчалик кенг таркаляптики, бу жамоатчиликнинг долзарб муаммосига айланиб улгурди. Бас, шундай экан, ҳар бир шахс ўз фаолиятига салбий таъсир кўрсатувчи ташвишли ҳолатнинг олдини олиш учун биринчидан, онлайн ахборот макони фойдаланувчилари ўртасида махфийликни қадрлаш ва ижтимоий вазиятларга эхтиёткорлик билан ёндашиши зарур. Иккинчидан, Instagram, Twitter, LinkedIn каби ижтимоий тармоклардан бирор нарса нашр этишдан аввал ўзингиз ҳақингизда нима деяётганингизни жиддий ўйлаб кўринг. Оддий бир мисол, биргина сельфи тушиш оркали сиз қаерда яшашингиз ёки ишлашингизни оммага ошкор килиб кўйишингиз мумкин. Бу эса ўз-ўзидан кибер «овчи»ларнинг эътиборини тортмасдан кўймайди. Учинчидан, «доксинг» курбони бўлганингизни англаганингиз ҳамоно ҳуқуқ-тартибот идораларига хабар беринг.

Зеро, қонунчилигимизда инсоннинг шахсий ҳаёти дахлсизлиги кафолатланган бўлиб, умумэътироф этилган меъёрларга кўра, фукаронинг шахсий ҳаёти ҳақидаги маълумотларни унинг розилигисиз ноконуний йиғиш ёки ошкор килиш, ёхуд бу хабарларни жамоат олдида сўзга чикишда, оммавий намойиш қилинувчи асар ёки оммавий ахборот воситаларида таркатиш, шунингдек, бошка максадларда фойдаланиш тақиқланган.

Маҳфуза ЮЛДАШЕВА,
Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори,
Тошкент молия институти доценти

ЕҲБУДИЙ САВОЛИГА ЖАВОБ БЕРИШ ВАҚТИ КЕЛДИ...

«Миллий тикланиш»нинг 2-сонида Махбуба Каримованинг «Нега Бехбудийнинг саволи ҳамон жавобсиз қолмоқда ёки Ўзбекистонда тўйлар ҳақида қонун қабул қилинишини таклиф қиламан» сарлавҳали мақоласини ўқиб, шу масалада ўз мулоҳазаларимни билдиргим келди.

Бехбудийнинг мақолада келтирилган фикрларини ҳар бир махалла ва хокимият биносининг, хатто ҳар бир хонадоннинг пештоқига ёзиб қўйиш керак. Балки шунда бироз ўзгарармидик?

Ҳақиқатан ҳам, бугунги тўйларимиз кимнингдир бахти-камоли учун эмас, «ким ўзарга» ўтказилаяпти... Яқинда бир қариндошимиз тўй килди. Дастурхонда қуш сутидан бошка ҳамма нарса бор. Одамлар тўйиб, бўкиб ейишди. Лекин тўй охиригача дастурхондан хеч нарса олинмагандай турди. Қолган егуликларни увол бўлмасин, деб қариндошлар бўлишиб олиб кетдик. Ахир исрофнинг ҳам уволи борку...

Аксариятимизнинг тўй деганда кўз олдимизга фақат овкатланиш, ўйин кулгу келади.

Тўйларимизда яна бир муаммо бор: мусиқа шу даражада баланд бўладики, кўшиқ эшитиб, маъносини тушунолмайсиз. Диккат килаверганингиздан асабларингиз таранглашиб, кон босимингиз ошади. Нима эмиш, ёшлар тўйга ўйнагани келганмиш...

Ҳамма нарса ёшларбоп бўлса, ўрта ёш ва қариялар нима қиляпти тўйда? Демокчиманки, тўй эгалари фақат дастурхонни «даҳшат» қилиш билан эмас, навбатчи санъаткорларнинг репертуари билан ҳам қизиқиб кўришлари керак. Жуда баланд «гумбура-гумбур» мусиқаю, ажнабийча ашуланинг маъносини билмай, ракс тушаётган ёшларга қараб бир кулгинг келади, бир ачингинг... Афсуски, мумтоз наволарни фақатгина нахорги ошларда тинглаяпмиз.

Эсимда, 1996 йили қайнонам Арабистондаги қариндошлариникида 3 ой яшаб, қайтганлар. Ўша пайтда Мадина ва Макка, Тоиф шаҳарларида яшовчи қариндошларининг тўйларини видеотасвирга олиб келгандилар. Очиғи, у ердаги тўйларни кўриб ҳам ҳавас килгандик, ҳам ҳайратга тушгандик. Тўйларида мусиқа деярли йўк, паст овозда куйлашар экан. Бир хонада меҳмонлар 2 тадан, 4 тадан бўлиб суҳбатлашиб ўтирибди. Бошка хонада меҳмонлар учун дастурхон тузатилган (швед столи деймиз). Ким тамадди қилишни хоҳласа, бориб ўша жойнинг ўзида ебичиб келаркан. Тўйхона саранжом саришта, тартибли бир ҳолатда. Болалар учун алохида жой. Кишининг асабини таранглаштирадиган баланд овоздаги куй, кўшиклар йўк. Шу маънода мақола муаллифи таклифига кўшиламан, лекин Қонун ижроси мукаммал бажарилиши керак. Унда тўйлардаги шовкин-суронларга барҳам бериш ҳақида ҳам, меҳмонларнинг сонини чеклаш ҳам, ким ўзарга дастурхон ёзиш, ким ўзарга санъаткорларни бирровга чақиришгача эътиборга олиниши керак. Вахоланки, пандемия пайтида 30 киши билан ҳам тўй килдик-ку.

Албатта, тўй ҳам қадрият. Аммо биз ана шу қадрият учун бир умр пул йиғиб, бир кунда сочамиз. Ундан кўра тўйга сарф килган пулни керакли нарсаларга сарф килган яхши эмасми? Яна бир ёмон нарса: хозир кўп вилоятларда ҳам Тошкенддаги тўйлардан ошириб тўй килиш урфга кирди. Масалан, бир тўй олдидан қизнинг маҳрига «Малибу» автомашинасини сўрашибди. Йўк дейишса, қизини бермасмиш. Албатта, Тошкентдан артистларни олиб келиш шарт килиб кўйилади, келин томондан. Дастурхонга спиртли ичимлик кўйиш шарт экан. Қонунда буларга ҳам чеклов кўйилиши керак. Хуллас, тўйларимизни тартибга солиш, чиройли, кайфиятни кўтарадиган, тарбияга ижобий таъсир кўрсатадиган, бошкаларга намуна бўладиган даражада ўтказиш вакти келди.

Зухра БЕРДИЕВА,
ЎзФА Фундаментал кутубхона директори

✔ Мутолаа

ТУЯ ВА ЭШАК

Тўртинчи «А» синфда ўкирдим. Ғалати ўкитувчимиз бор эди. Ўзи найнов. Бўйни узун. Ҳар кадам босганида боши лиқиллайди. Туянинг ўзи... Шўхлик килсак, койимайди, фақат «Ҳа, болажон-а, болажон!» деб хўрсиниб кўяди. Унга сайин биз баттар тўполон киламиз... Аммо кўзларини ярим юмиб шеър ўкиганида синфимиз жим бўлиб колади... Ўша шеърларнинг баъзи сатрлари чала-ярим эсимда колган. «Ҳакикатни кўрганларнинг кўзи кўрдир, ҳакикатни тинглаганнинг кулоғи кар...»

Кунлардан бирида ўкитувчимиз дарсга кирмади. Эртасига ҳам... Индинига ҳам...

Қизик, биз уни соғина бошладик.

Бир ҳафтадан кейин янги муаллим келди. Тўртинчи «Б»нинг муаллими. «Кителли» муаллим. Кўриниши шу кадар кўркқулик эдики, ҳамма пилдирпис бўлиб колди. Орамиздаги дадилрок бола «ўзимизнинг маълим кани?» деб сўраган эди, «кителли» муаллим сапчиб ўрнидан турди.

– Шоир маълиминг Магаданда! – деди кўлини пахса килиб. – У маълим эмас. Халқ душмани! Антисовет шоирларнинг шиғирини ўкиган! Мутаассиб! Диндор! Маълимингни соғинган бўлсанг, отангга айт: иккалангни маълимингни олдига жўнатамиз!

Кейин бир-биридан ваҳимали гаплар таркалди. «Шоир – ўкитувчи халқ душмани экан. Янги маълим «тегишли жойга ёзиб берибди...» «Кителли» муаллим яна анча йил дарс берди. Аммо бирон марта «шиғир» ўкимади...

Орадан кўп йиллар ўтди. Наврўз байрами бўлаётган эди. Бир маҳал микрофонда таниш, виқорли овоз жаранглаб колди:

– Биродарлар! Яратган эгамга шукроналар килинг! Мустакиллик кадимий анъаналаримизни тиклади. Наврўз – халқ байрами. Ҳаммамизнинг байрамимиз!

...Қарасам, ўзимизнинг «кителли» муаллим. Деярли ўзгармабди. Ҳамон тетик. Ҳамон виқорли... Фақат эгнида жигаррранг кител эмас, тўн. Бошида дўппи...

«Кителли» муаллимнинг гапига маҳлиё бўлиб, рўпарамда ўтирган карияга эътибор бермабман.

Бир маҳал қариянинг ўзи гап бошлаб колди:

– Сиз мени танимайсиз. Мен сизнинг китобларингизни ўкийман, болажон!

«Болажон» дегани калбимда кандайдир соғинч туйғуларини уйғотгандек бўлди. Покиза кийимли, кадди букик карияга синчиклаб тикилдим.

– Сиз...

– Ҳа-да! – деди кария мулойим кулиб. – Мен ўша «шоир» ўкитувчингизман... Хурсандман, болажон, ёзганларингиздан хурсандман.

...Агар микрофонда «кителли» муаллим ваъзини чўзмаса, бошка мавзуга кўчган бўлармидик...

– Домла, – дедим карияга. – Манавилар ҳамон ваъзхонлик килиб ётибди. Ахир сиз...

– Начора, – деди кария хотиржам алфозда. – Эшак качон хохласа, каерда хохласа, ҳанграйверади, болажон... Менинг ҳеч кимга хусуматим йўк... – Бир зум ўйланиб турдида, синик жилмайди. – Бир ҳангомани айтиб берайми?.. Эсини еб кўйган чолни маъзур тутасиз. Бу гапларни китобдан ўкиганмидим, ё эллик иккинчи йили «у ёкка» жўнатишганида этапда эшитганмидим, эсимда йўк. Аммо маъноси бундай.

Қадим замонда бир сарбон бўлган экан. Кўп юртларга борибди. Кўп азият чекибди... Ёшини яшаб, ошини ошаб, вақти-казоси етганини сезибди. Болачақалари, қариндош-уруғлари билан рози-ризолик тилашибди. «Мендан розимисизлар?» дебди. «Мингдан минг розимиз», дейишибди.

Ногаҳон яна бир кадрдони сарбоннинг эсига тушибди. Қирк йил хизматини килган туяси бор экан. Шу билан ҳам видолашадиган бўпти.

«Вақти келса, керагидан ортик юк ортдим, вақти келса, сувсиз колдинг, оч колдинг, мендан розимисан?» деб сўрабди туядан.

«Розиман, – дебди туя. – Тўғри, юк ҳам ортдинг, сувсиз ҳам колдирдинг. Нимаики килсанг, карвон манзилга бехатар етсин, деб килдинг... Аммо бир марта сендан каттик дилим оғриган. Бир гал менинг жиловимни эшакнинг думига боғлаб кўйгансан... Ўшанда эшак тупрок чангитгани етмагандек, бир-икки марта тумшуғимга тепди... Сен бўлсанг, кулиб томоша килдинг...»

Кария жимиб колди. Тағин синик жилмайди.

– Яхши сарбон юк ортадиган туясини эшакка тептириб кўймайди...

Микрофонда эса, ҳамон «кителли» муаллим нутк ирод этар эди:

–Мана, Худога шукр, динимиз тикланди. Имонли бўлайлик. Ўт балосидан, сув балосидан, туҳмат балосидан асрасин...

Қаердадир эшак ҳангради. Узок, кучаниб ҳангради...

Ўткир ҲОШИМОВ

Режали ВАЙРОНКОРЛИК

72 кун яшаган Туркистон Мухторияти ҳукумати аъзоси, маориф вазири Носирхон Тўранинг бир неча бор қамоққа олиниши ва сургун қилиниши билан боғлиқ ҳолатларни бир эсга олайлик. 1925 йили Носирхон тўра «советларга қарши сиёсий фаолият олиб боргани учун» деган айблов билан (1928 йилгача) Оренбургга сургун қилинади, 1930 йилнинг 27 ноябрида эса давлат хавфсизлиги махсус органининг қарори билан отишга ҳукм қилинади. Шунингдек, Носирхон тўра билан бирга кўплаб унинг сафдошлари ва шогирдлари ҳам ўлим жазосига ҳукм қилинади. Чунки Носирхон тўрадан таълим олган ёшларнинг кўпчилиги мактаблар очиб, ёш авлодни тарбиялашга ҳисса қўша бошлаган эдилар.

Ана шундай инсонлардан бири – Носирхон тўранинг шогирди, ислом фиқҳи ва тарихига оид 47 та асар ёзган Мубашширхон тўра ҳам (1896–1977) мактаблар очган, аммо таъқиблар кучаявергач, 1930 йилда ватанни тарк этади. Яна бир олим, адиб ва таржимон Олтинхон тўра (1894–1992) ҳам 1932 йилга келиб турли тазйиқлар сабаб ватанни тарк этишга мажбур бўлади. Ўз даврида "Масжид ал-ҳаром" ва "Масжид ан-набавий"да мударрислик қилган Олтинхон тўра Қуръони карим маъноларини илк бор ўзбек тилига таржима ва тафсир қилган олим эди...

«Ўтган йилларда мактаблар ҳар турли қўлларга ўтган эди. Иккиуч йил боласини мактабга қўйган ҳар ким боласининг ҳеч бир нарса ўрганмаганини кўриб қайтариб олди. Бу мактаблардан бир фойда йўқ экан, деган бир фикр туғилди. Бир мактабга талаба ҳар қанча давом этмак истамаса ҳам, кийимлик ёки озуқа бериб туриш йўли билан ҳар ҳолда оз-моз сақланиб турғон эди. Бу кун эса булар битирилганидан мактаблар ёпилди. На у ерда, на шаҳарда мактаблар қолмади» деб ёзган эди Вали Маҳмуд ўзининг «Маорифимиз» номли мақоласида («Камбағаллар товуши» газетаси, 1922 йил 29 июнь ва 4 июль сонлари).

Маълумотларга кўра, Совет ҳокимияти даврида (1956 йил 15 июнда қарор чиқарилиб, бекор қилинган) мактаб таълими ҳам пулли бўлган. Ўзбекистон ССР Халқ комиссариатининг 1926 йил 7 декабрдаги 46-сонли қарори билан бепул таълимга чек қўйилиб, болаларнинг мактаб ёки боғчаларда ўқишлари учун ҳақ тўловчи ота-оналарнинг ижтимоий аҳволи тоифаларга ажратилган ҳолда нарх белгиланган. Бу сиёсатдан кўзланган асосий мақсад мактабларни пулли қилиб бюджетни тўлдириш билан бирга ота-оналарни ўз фарзандларини ўқитишлари учун янада кўпроқ ишлашга рози қилиш эди.

1930 йилнинг 14 августида қабул қилинган «Умумий мажбурий бошланғич таълим ҳақида»ги қонунга кўра, 8-10 ёшли болаларни бошланғич мактабларнинг камида 4 йиллик курси ҳажмида мажбурий ўқишга жалб этиш, 11-15 ёшли меҳнат мактабининг 4 йиллик босқичида ўқимаганлар учун эса тезлаштирилган 1-2 йиллик ўқишлар ташкил этиш ҳамда саноат шаҳарларида болаларни 1930 – 1931 ўқув йилидан бошлаб 7 йиллик мажбурий мактабларга жалб этиш эди.

Совет ҳокимияти томонидан ушбу тизим тўла назорат қилинмаган даврларда жадид боболаримиз ўз миллий таълим андозалари ва яратган дарсликлари асосида халқнинг ҳатто ҳарф таниймайдиган қисмини ҳам зиёлиларга айлантиролган эдилар. Ҳатто уларнинг кўпларини ўз ҳисобларидан чет давлатларга ўқишга жўнатишди. Буларни кўрган Совет ҳокимияти вакиллари таълим тизими ислоҳ қилиниб, натижа бера бошласа ва бу замин ривожланса халқ мустақиллик учун курашиб, унга албатта эришиши мумкинлигини яхши билардилар. Шунинг учун ҳам энг аввало, маориф тизимида қатағон сиёсати амалга оширилди. Биргина мисол, 1933 йилнинг 27 мартида ВКП(б) МК Ўрта Осиё бюроси ўқитувчи кадрлар сафини тозалаш ҳақида махсус қарор қабул қилади. Гарчи бунда тозалаш деб ёзилган бўлсада, амалда таълим тизимининг фидойи ходимлари, сифатли таълим бераётган ўқитувчилар соҳадан четлатилиб, қатағон қилинади. Ҳатто ўша йилларда хорижга (Туркия, Германия…) ўқишга жўнатилган талабалардан совет давлати учун айғоқчилик қилишни талаб этиш ҳолатлари ҳам кузатилган. Бош тортган талабаларга эса таътил вақтларида сиёсий айбловлар қўйилиб, қамоққа олинган ёки ўқишга қайтиб боришлари чеклаб қўйилган. Ўз ватанида юз бераётган бундай сиёсатдан хабар топган айрим талабалар эса хорижий юртларда қолишга мажбур бўлишади.

Иккинчи жаҳон уруши даврига келиб эса эркак ўқитувчиларнинг ҳарбий хизматга чақирилишлари ва кўплаб мактаб биноларининг госпиталларга айлантирилиши натижасида дарслар 3 сменада олиб борилади-диган ва ҳар бир дарс 40 дақиқадан ошмайдиган бўлди. Мусиқа ва расм дарслари эса умуман олиб ташланди. Ана шу даврда – 1940 йилнинг май ойида ЎзССР Олий Совети томонидан «Ўзбек ёзувини лотинлаштирилган алфавитдан рус графикаси асосидаги янги ўзбек алфавитига кўчириш тўғрисида»ги қонуни қабул қилинади. Уруш йилларида Ўзбекистонга миллиондан ортиқ бола эвакуация қилинганлиги сабабли болалар уйлари очилди (1943 йил 154 та, 1945 йили 242 та). Бундан ташқари, тизимда ўқитувчиларнинг етишмаслиги муаммоси пайдо бўлди.

Урушдан кейин эса совет ҳукумати таълим сифати юқори натижа бераётган Швеция таълим тизимини жорий этишни бошлади. Қайд этилишича, Швеция мактабларида ўқиш 1930 йилдан 7 йил, 1950 йилдан эса 8 йил этиб белгиланган. Фақат 1949 йилга келибгина 7 йиллик мажбурий таълим тизимига ўтилди. 1962 – 63 ўқув йилидан бошлаб эса 8 йиллик мактабларга ўтилди.

Ўн йиллик умумий ўрта таълимга ўтишга эса 1975 йили, яъни совет ҳокимияти ўрнатилгандан кейин деярли 60 йил ўтиб эришилади. Аммо Ўзбекистон болалари учун бундан ҳам катта муаммо бор эди: мамлакат асосан пахта етиштиришга ихтисослашган бўлиб, мустақиллик эълон қилингунига қадар – 75 йил давомида болаларимиз эрта баҳордан далаларда яшардилар...

Яна бир фикр: Мустақиллик арафасида Ўзбекистон мактабларида миллий жиҳатларга эътибор, бошқа совет республикаларидагига нисбатан анча ёмон эди. Фикримиз исботини биргина география фани мисолида кўриш мумкин: яъни география дарсига ажратилган дарс соатлари ўқув йили давомида СССР Халқ таълими давлат комитетининг буйруғига биноан 12 соат билан чекланган. Аммо Латвия, Литва, Эстонияда 68 соатни, Украина ва Грузияда 34 соатни, Қозоғистонда 24 соатни ташкил этарди.

Назаримда, бугунги таълим тизимида кўзга ташланаётган муаммоларнинг асл илдизи ҳам 75 йил илгариги қаттиққўллик билан амалга оширилган сиёсат ва бу жараёнларнинг 90-йилларда ҳам давом этганлигидандир. Шу тарика ҳукумат ўқитувчилар ва ўқувчилардан текин ишчи кучи сифатида фойдаланарди. Биргина мисол, 1994 йилда республикадаги 2214 та мактаб ихтиёрида 3541 гектар экин майдони, 518 гектар боғ бўлган. Айни шу йилнинг ўзида бу майдонлардан 2500 тонна пахта, 630 тонна ғалла ва 282 тонна дон етиштирилган. 25190 тонна полиз маҳсулотлари ва мева, 50 тонна ер ёнғоқ, 516,5 тонна шоли ҳосили ҳам айнан мактаб ихтиёридаги ерлардан йиғиб-териб олинган.

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш жоизки, совет ҳокимияти даврида таълим тизими ҳеч қачон аниқ бир дастур асосида амалга оширилмаган. Агар таълим сифати яхшиланса, ҳудудлар ривожланиб, мустақиллик учун курашиши ва бунга эришиши мумкинлигини ҳукумат яхши тушунар эди. Шунинг учун ҳам асосий эътибор ҳудудлардан қимматбаҳо ресурсларни ўзлаштириш ва марказга ташишга қаратилган.

Завқибек МАҲМУДОВ,
ФА Тарих институти кичик илмий ходими

> **ЎН ЙИЛЛИК УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМГА ЎТИШГА ЭСА 1975 ЙИЛИ, ЯЪНИ СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЎРНАТИЛГАНДАН КЕЙИН ДЕЯРЛИ 60 ЙИЛ ЎТИБ ЭРИШИЛАДИ.**

✔ Вазиятга назар

ТАРИХЧИЛАРИМИЗ БАҲСЛАРГА ТАЙЁР ЭМАС(МИ?)



Рус шовинистларининг қатор баёнотларидан сўнг ўзбек интернетининг жунбушга келгани 15 йил олдинги қизиқишларимни эслатиб юборди. Олдинроқ айтувдим, бу мавзуга жуда қизиқиб, баҳсларни кузатардим. Бу баҳслар асосан рус тилидаги форумларда бўларди. Мақолалар рус тилида, тожик, рус, қозоқ, баъзида қирғиз сайтларида чиқарди. Ўзбеклар баҳсларда деярли қатнашмас, биров ўзбек интернетига мавзуни кўтариб борса, «ковлаштирма, миллатчилик қилма» дейишарди. Энди бу мавзу ўзбек интернетидаям оммалашмоқда. Аммо ҳалигача бу масалада қўшнилардан ортдамиз.

Элдар АСАНОВ

Бир томондан, носоғлом баҳсларга аралашиш зарарли. Бошқа томондан, бу каби даъволарга иммунитет, тайёр жавоблар йўқлиги кўриниб қоляпти. Бунда ўзбек тарихчиларининг айби қатта деб ўйлайман. Умуман, Ўзбекистонда «ўзбек» тушунчаси жуда парадоксал позицияда. Бир томондан, бу титул халқ номи, мамлакат номи; бошқа томондан, бу ном 600 йил олдин пайдо бўлган; 3 минг йиллик тарихга даъвогар тарихчи ва сиёсатчиларимиз, табиийки, 600 га қаноат қилишмайди, шу боис «ўзбек» номи атрофида спекуляция кўп: «биз аслида сўғд бўлганмиз, турк бўлганмиз, ўзбеклар кўчиб келган, лекин ҳеч нарсани ўзгартирмаган, бу ном 1924 йилда қабул қилинган» ва ҳ.к. Тарихчиларимиз «ўзбек» номини буюк ўтмиш билан келиштиролмай қийналади, шунинг учун ҳам унинг тарихи ва аҳамиятига кўз юмади.

Моҳиятан, рус шовинистлариям, кўшни халқларнинг миллатчилариям ўзбек тарихчилигига уннаб қолган мана шу карашларни ўзбекларнинг ўзига карши ишлатишяпти: «миллатнинг номи йўқми, демак, ўзиям йўқ, сунъий яратилган, ўйлаб топилган». Аслида Шайбонийхонга, Убайдуллахонга, керак бўлса, Ўзбекхонга эътибор шунинг учун ҳам керак: миллат номи шунчаки «берилган», аҳамиятсиз нарса эмас, у миллатнинг шаклланганини, борлигини кўрсатадиган рамз (этник, сиёсий, лисоний ўзгаришлар ҳам кўп бўлган аслида, аммо бу энди катта мавзу), унинг ортида тарихий капитал туради.

Саккиз-ўн йил олдин бу ҳақда энди ўзбек тилида ёза бошлаганимда, ўзбек Facebook'ида кескин норозиликка учраганман: «тарихимизни ёшартиряпсиз, бизни мўғулга чиқаряпсиз, ўзбек эмас, турк бўлганмиз, Шайбонийлар кучли бўлмаган, Темурийларни йўқ қилган» дегандай. Смолин кабиларнинг баёнотларидан кейин энди ҳамма ўтмишдан «ўзбек» номини қидириб қолди. Олдинроқ ўйлаш керак эди бу ҳақда. Ҳалиям бўлса ўзбек тарихи қайта кўриб чиқилиши керак. Темурдан кейин фақат қолоқлик бўлган, деган эскича қараш ҳам воз кечиш керак. «ўзбек» деган ном ўзбек тарихчилигининг ўгай фарзанди бўлмаслиги керак.

P.S: бундан 12 йил муқаддам, магистратурани энди битирганимда Максим Бейлис исмли бир муаллифнинг мақоласига жавоб ёзганман (ундан кейин унинг жавобигаям жавоб ёзганман. Бейлис ҳам худди шу «советлар ўзбекларни яратган» деган тезисини илгари сурганди. Мен бунга қарши аргументлар келтирганман. Улардан бемалол фойдаланиш мумкин. Мен эса бу баҳслардан ўша йилларда ўтиб, саволларимга жавоб топиб, тинчланганман, муаммони қўйворганман.

Қизиғи, бу мақолалар ёзилган даврда ҳозирги билим, дунёқарашнинг ўндан бири ҳам йўқ эди, у ердаги кўпгина қарашлардан ҳозир воз кечганман, кўп жараёнларни кенгроқ (илмийроқ, холисроқ) тушуна бошлаганман, бугун маълум маънода ўша мақолалардан уяламан ҳам. Аммо рус шовинизмининг ғояларини фош қилишга шу иккита сифатсиз мақола ҳам етарли эди...

✔ Кутинг!



Аҳмадали АСҚАРОВ, Низомий номидаги ТДПУ Тарих факультети профессори, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби ва ёшлар мураббийси

ҚУРЪОНИ КАРИМНИ қандай тушунмоқ керак?

Келгуси сонларда

fb.com/milliytiklanish.gazetasi
t.me/milliy_tiklanish_gazetasi
www.mt.uz
milliytiklanish2022@umail.uz

«Milliy tiklanish» ijtimoiy-siyosiy gazetasi
www.mt.uz
№3 (1235)
31-yanvar 2024-yil, chorshanba

Зўр карвон йўлида етим бўтадек,
Интизор кўзларда ҳалқа-ҳалқа ёш.
Энг кичик заррадан Юпитергача
Ўзинг мураббийсан, хабар бер, Қуёш!

Узилган бир киприк абад йўқолмас,
Шунчалар мустаҳкам хонаи хуршид.
Бугун сабза бўлди қишдаги нафас,
Ҳозир қонда кезар эртаги умид.

Хоки анжир тугаб, қовун ғарқ пишган
Бахтли тонг отар чоғ уни кузатдим,
Бир малъун гулшанга қадам қўймишкан,
Жони бир жондошлар қолармиди жим!

Унда етук эди мерос мард ғурур,
Остонани ўпиб, қасамёд қилди.
Укаларин эркалаб, ўзимдай мағрур,
Яъни обод уйимни у дилшод қилди...

Иблиснинг ғарази бўлган бу уруш
Албатта, етади ўзин бошига.
Ўғлим омон келар, ғолиб, музаффар,
Гард ҳам қўндирмасдан қора қошига.

Не қилса отамен, мерос ҳиссиёт...
Жондан соғинишга унинг ҳаққи бор,
Кутаман, узоқдан кўринса бир от,
Келаяпти, дейман кўринса ғубор.

Баҳор новдасида бўртган ҳар куртак
Соғинган кўнгилга берар тасалли.
Кўчатлар қоматин эслатганидек,
Нафасин уфурар тонг отар ели.

Кечқурун ош сузсак бир насиба кам,
Қўмсайман бировни — аллакимимни,
Доимо умидим бардам бўлса ҳам,
Баъзан васвасалар босар дилимни.

Балки бир ғалат ўқ ё хавфу хатар
Хазинаи умримдан йўқотди олмос...
Йўқ, у ўлмас, қадами олам яратар,
Ҳаётий бу олам сизу бизга хос.

Тонг отар чоғида жуда соғиниб,
Бедил ўқир эдим, чиқди офтоб.
Лойқа хаёлотлар чашмадай тинди,
Пок-покиза юрак бир қатра симоб.

Ўроғу гулқайчи, истак кўтариб,
Ҳовримни босишга боққа жўнадим.
Ҳашарчи қўшни қиз — унинг севгани,
Маъюс босар эди орқамдан одим.

Боғда сарвинозим йўқ эди гарчанд,
Кўмакчим арғувон ёринг Нафиса,
Сени соғинганда қилдим гул пайванд —
Бу баҳордан ҳаёт оларди бўса.

Дур бўлиб тақилур ёринг бўйнига,
Садафдай кўзимда, беҳуда бу ёш.
Икковинг икки ёш, лабинг лабига
Қўяр, васвасамдан кулади қуёш.

Асалдан ажраган мумдай сарғайиб,
Ини йўқ аридек тўзғиганим йўқ.
Улуғ эътиқодда ўламан қариб,
Абаддир мендаги падарий ҳуқуқ.

Сизларни келди, деб эшитган куни —
Ўзинг тўқиб кетган катта саватда
Тўлатиб шафтоли узиб чиқаман,
Ғалаба кунлари яқин, албатта.

Яёв, кўксим очиқ, бошда шафтолу,
Худди мўйлабингдек майин туки бор,
Ҳар битта шафтолу мисоли кулгу,
Шафақдай ним пушти, сарин, беғубор.

Суйганинг лабида реза тер каби
Унда титраб турар сабуҳий шабнам.
Мунчалик мазани топа олмайди
Уйқуда тамшанган чақалоқлар ҳам.

Ё ўғлим, жонгинанг саломат бўлсин,
Ўз боғинг, ўз меванг, данагин сақла.
Шу мерос боғингни ўз қўлингга ол,
Менга топширилган меросий ҳақ-ла.

Боғда товус каби хиромон бўлиб,
Умид данагини бирга экингиз,
Ғолиб келажакни сайр қилайлик
Мушфиқ онагинанг билан иккимиз.

Ўтганларнинг охирати обод бўлсин!

САВОЛ БЕРИНГ!

– Қизим 17 ёшда. Шу ёшида қизимизни турмушга беришга қонунан ҳақлимизми?

Дилноза Икромова, Денов тумани

– Оила кодексининг 15-моддасига кўра, никоҳ ёши эркаклар ва аёллар учун ўн саккиз ёш этиб белгиланган. Бироқ ушбу моддада узрли сабаблар бўлганида, алоҳида ҳолларда (ҳомиладорлик, бола туғилиши, вояга етмаган шахснинг тўла муомалага лаёқатли деб эълон қилиниши (эмансипация), никоҳга киришни хоҳловчиларнинг илтимосига кўра, никоҳ ёши кўпи билан бир йилга камайтирилиши мумкин.

– Тиббиёт ходиминнинг фаолиятига тўсқинлик қилганлик учун қандай жавобгарлик бор?

Нусрат Сангинов, Термиз шаҳри

– Тиббиёт ходиминнинг қонуний тиббий фаолиятига тўсқинлик қилиш ёки шу мақсадда тиббиёт ходимига қонунга хилоф равишда ҳар қандай шаклда таъсир ўтказиш фуқароларга БҲМнинг 5 бараваридан 7 бараваригача (1 млн. 700 минг сўмдан 2 млн. 380 минг сўмгача) миқдорда жарима, мансабдор шахсларга БҲМнинг 7 бараваридан 10 бараваригача (2 млн. 380 минг сўмдан 3 млн. 400 минг сўмгача) миқдорда жарима ёки 15 суткагача маъмурий қамоққа сабаб бўлади.

Соғлиқни саклаш вазирлиги Матбуот хизмати

– Талаба неча ёш бўлса ота-онасининг шартнома учун тўлаган пуллари даромад солигидан озод этилади?

Сарвиноз Сафаева, шифокор

– 28.12.2023 йил ЎРҚ-891-сон Қонун билан Солиқ кодексига киритилган ўзгартишга кўра, 2024 йил 1 январдан, ота-оналар ҳар қандай ёшдаги фарзандларининг профессионал ва олий таълим ташкилотларида ўқиши учун тўлаган пуллари даромад солиғидан озод этилади.

– Чорвачилик хўжаликларига субсидия берилади деб эшитдим. Субсидияни олиш учун кимга мурожаат қилишим керак? Шу ҳақда маълумот берсангиз?

Салим Шодиев, Нурота тумани

– Ҳукуматнинг 26.01.2024 йил 52-сон қарори билан тасдиқланган тегишли низомга кўра, чорвачилик хўжаликларига 2025 йил 31 декабргача давлат томонидан хорижий давлатлардан импорт қилинган наслдор корамолнинг ҳар бир бошига 2 млн. сўм, наслдор қўй ва эчкининг ҳар бир бошига 400 минг сўм миқдорида субсидия ажратилади. Талабгор хорижий давлатдан наслдор корамолни олиб келганидан сўнг туман комиссиясига субсидия олиш учун «Агросубсидия» АТ орқали мурожаат қилиши мумкин.

– Тадбиркорлик фаолияти билан давлат рўйхатидан ўтмасдан шуғулланганлик учун қандай жавобгарлик бор? Шу ҳақда маълумот берсангиз?

Сирожиддин Қўзиев, Қарши шаҳри

– Жиноят кодексининг 176-моддасига кўра, тадбиркорлик фаолиятини давлат рўйхатидан ўтмасдан амалга ошириш — ҳуқуқбузарлик ашёларини мусодара қилиб, базавий ҳисоблаш миқдорининг беш баравари (1 млн. 700 минг сўм)дан етти бараваригача (2 млн. 380 минг сўм) миқдорда жарима солинишига сабаб бўлади.

Юрист блогер расмий телеграм канали

– Аттестациядан ўтиш учун қандай ҳужжатлар тақдим этилади? Малака оширганлик тўғрисидаги маълумотнома ҳам керакми?

Ҳулкар Ходжаева, ўқитувчи

– Педагог кадрлар томонидан аттестациядан ўтиш учун мурожаат этилганда, Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 17 сентябрдаги 572-сон қарори билан тасдиқланган Низомга илова қилинган сўровнома электрон тарзда тўлдирилади. Сўровномага педагог кадрнинг таълим тўғрисидаги ҳужжати (хорижий давлатда таълим олганлик тўғрисидаги ҳужжатни Ўзбекистон Республикасида тан олиш ҳақидаги гувоҳнома), қайта тайёрлаш курсларидан ўтганлиги ҳақидаги диплом нусхаси (агар мавжуд бўлса), педагог кадрнинг педагогик маҳорати ва психологик тайёргарлигини баҳолаш натижалари юзасидан маълумотномалар (ўрта махсус ва профессионал таълим ташкилотлари педагоглари учун) илова қилинади.

Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги Ахборот хизмати

Осиё кубоги-2023

Ўзбекистон чорак финалда

Осиё кубоги-2023 нимчорак финалида Ўзбекистон миллий жамоаси Таиландни мағлуб этиб, чорак финалга йўлланма олган 5-жамоага айланди.

Доҳалаги «Ад-Жануб» ўйингоҳида кечган баҳс оллидан жароҳати сабабли Игор Сергеевнинг майдонга тушмаслиги аниқ бўлиб улгурганди, учрашув арафасида эса яна бир ўйинчи – Отабек Шукуров тумов сабабли ўйинни ўтказиб юбориши маълум қилинди.

Учрашувни ҳужумкор бошлаган вакилларимиз 37-дақиқага келиб ҳисобни очишди. Шу куни Шукуровнинг ўрнига майдон марказидан жой олган Диёр Холматовнинг ажойиб узатмасини Азизбек Турғунбоев чиройли зарба билан рақиб дарвозасига киритди – 1:0. Бу Азизбекнинг турнирдаги иккинчи голи бўлиб, Таиландинг Қатарда ўтказиб юборган илк голига айланди.

Иккинчи бўлимни ҳотиржам бошлаган Сречко Катанец шогирдлари 59-дақиқада жазоланишди. Супачокнинг жарима майдони ташқарисидан йўллаган зарбасини Ўткир Юсупов қайтара олмади – 1:1.

Голдан кейин яна ҳужумкорликка эътибор қаратган вакилларимиз 65-дақиқада стадионни навбатдаги марта ларзага келтиришди. Машариповнинг узатмасини Аббосбек Файзуллаев жарима майдони ташқарисидан рақиб дарвозасининг узоқ бурчагига йўллади – 2:1.

Шу тариқа, Ўзбекистон миллий жамоаси кейинги ўйинни Қатарга қарши ўтказишадиган бўлди.

"Миллий тикланиш" демократик партияси Марказий кенгаши ҳамда Сурхондарё вилояти Кенгаши партиясининг Денов туман Кенгашининг собиқ раиси

КАРИМОВ ЖАМОЛИДДИН ИСЛОМҚУЛОВИЧНИНГ

вафоти муносабати билан марҳумнинг оила аъзолари ва яқинларига ҳамдардлик билдиради.

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV – kengash raisi
Akmal SAIDOV, Abror PO'LATOV, Amriddin BERDIMURODOV, Akmal JUMABOYEV, Bahodir MAMATXONOV, Ilhom ABDULLAYEV, Ibrohim G'OFUROV, Iroda DADAJONOVA, Minhojiddin MIRZO, Nuriyman ABULXASAN, Odiljon TOJIYEV, Olim O'SAROV, Otabek JIYANBOYEV, Ozodbek NAZARBEKOV, Ortiqali QOZOQOV, To'lqin TESHABOYEV, Feruza MUHAMMEDJANOVA, Xurshid DO'STMUHAMMAD, Sherzodxon QUDRATXO'JA, Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT MANZILI:
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Maqsud Shayxzoda ko'chasi, 1 A-uy.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Gazetada Internet ma'lumotlari va suratlaridan foydalanildi.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR:
Abdug'affor OMONBOYEV, Mahbuba KARIMOVA
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YO'LDOSHEV
NAVBATCHI:
Feruza XODJAYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV, Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.
Korxona manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 5 036.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq
Buyurtma: G – 121
Bosishga topshirish vaqti 21:00.
Topshirildi 04:25

Telefon:
(97) 755-10-11

ISSN 2010-7714

123456